

## Hayot tarsakisi

Universitet ostonasiga qadam qo'yar ekansan, kecha olgan qimmatbaho tufing onang bir vaqtlar olib bergan arzon poyabzal oldida g'arib ekanini sezasan.

8-bet

## O'zbekka "volodya"lar kerakmi?

Biz gap orasida aytadigan "уже", "сразу", "конечно", "значает", "просто так", "брат" kabi so'zlar madaniyatli ekanligimizni bildirilmaydi!

9-bet



## Tabiatning qon bosimi oshmoqda



Har yili dunyo miqosida 5 yoshgacha bo'lgan 760 ming bola diareya kasalliklaridan ko'z yumayotgan bir paytda global isish muammoni yanada og'irlashtiradi.

13-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 15-may, chorshanba № 37 (9206)

Xalq ziyolilari gazetasi



Bu illatdan hamon qutulmadik!

12-bet

15-savolga e'tibor beramiz:

"Thank you. That's all."

Javob variantlari:

A) Please.

B) Welcome.

C) I.

D) You are welcome.

Ochig'i, boshida savolga tushunmadim. Keyin 8-sinf ingliz tili darsligidan jumboqqa yechim topdim.

Fly High  
ENGLISH 3



Jarayon

## Musobaqalar o'quvchi shijoatini so'ndirmasin!

Bilimlar bellashuvining maktab bosqichini kuzatib, ba'zi jihatlarga e'tibor qaratdim.

Birinci muammo — maktab bosqichida har doim ham bellashuvga munosib o'quvchi tanlanmayapti. Buni ishonch bilan aytishga asos bor. Ba'zi o'quvchilar kimningdir jiyani bo'lgani yoki o'qituvchi shunchaki faqat uni olib borishni istagani uchungina tuman bosqichida qatnashadi. Natijada tasodifiy ishtirokchi o'rin ololmaydi. Undan bilimli o'quvchi esa maktab bosqichida vaziyat qurboniga aylangan.

Nega o'quvchilarning bitta fandan emas, istasa, ko'proq fandan bilimini sinab ko'rishiga imkon berilmaydi? Shu savolga javobni bilimlar bellashuvini o'tkazish to'g'risidagi nizomdan qidirdim. Nizomning IV bo'limi 19-moddasida shunday deyilgan:

"Dekabr oyida har bir fan o'qituvchisi o'zi dars berayotgan sinfdagi o'quvchilarni fan bo'yicha bilimlar

bellashuvi o'tayotganidan xabardor qiladi. Sinfdagi o'quvchilar bilan birgalikda, o'zi dars berayotgan fandan 2-3 nafar eng bilimdon o'quvchilardan iborat sinf terma jamoasini shakllantiradi. Bellashuvda sinfning terma jamoasi ishtirok etadi".

**Nega o'quvchilarning bitta fandan emas, istasa, ko'proq fandan bilimini sinab ko'rishiga imkon berilmaydi?**

Guvoh bo'lganingizdek, bellashuvda kim qatnashishini o'qituvchi o'zi hal qiladi. Menimcha, bu noto'g'ri. Shu bois qoidaga biroz o'zgartirish kiritish kerak.

5-bet

## Samarqandda sudyalar kimga xizmat qilyapti?

Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand viloyat sudi o'z himoyasiga olgan Nasiba Xudoyqulovaning kimligi, qilgan ishlari haqida batafsil yozsak, katta bir kitob bo'ladi. Shuning uchun sof xronologik tarzda bo'lib o'tgan ishlarni sanab o'tamiz, xolos.



Nasiba Xudoyqulova 1982-yili Samarqand viloyati Paxtachi tumani Chorgo'sha qishlog'ida tug'ilgan. Paxtachi tumani pedagogika kollejini «Maktabgacha ta'lim muassasalarida va boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya tashkilotchisi» mutaxassisligi bo'yicha tugatgan.

Nasiba ilk bor 2000-yilda Ziyovuddin qo'rg'onida yashovchi Baxtiyor Ulug'ovga turmushga chiqqan. Erining aytishicha, bir kun ham yaxshi yashamagan. Nuqul onasidikiga «qochgan». 2001-yilda qizi, 2003-yilda o'g'li tug'ilgan, ammo uch oylik emizikli bolani otasiga tashlab, ajrashib ketgan. Sudda bolalaridan voz kechgan. («Men onangman», deb borganida esa, bo'y yetib qolgan qiz va o'g'il ham undan voz kechgan!)

Nasiba ikkinchi marta Narpay tumani Chaqar qishlog'ida yashovchi Jasur Ismoilovga turmushga chiqadi. Egiz farzand ko'radi. Husanini otasiga tashlab, nogiron tug'ilgan Fotimasini olib, ikkinchi eridan ham ajrashib ketadi.

Uchinchi martasiga Paxtachi tumanidagi Bog'oloni qishlog'ida yashovchi Javlon Ibodovga turmushga chiqadi. Bir yilda bu eri bilan ham ajrashadi.

2010-yil 1-noyabrdan 2013-yil 11-fevralgacha Navoiy shahridagi 16-maxsus (nogiron bolalar uchun) bog'chada yarim stavka tarbiyachi lavozimida ishlaydi. Jami ish staji 2 yil 3 oy 11 kun.

7-bet

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-may kuni Missisipi shtati gubernatori Filipp Brayant boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Mamlakatimizga kelgan AQSh delegatsiyasi Missisipi shtati administratsiyasi, yetakchi tashkilotlari hamda savdo, innovatsiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligi va ta'lim sohaslaridagi kompaniyalari vakillaridan iborat.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni samimiy qutlar ekan, tashrif O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi davri doirasida faol muloqot olib borilayotgani va ko'p qirrali munosabatlar izchil rivojlanayotganidan dalolat berishini alohida ta'kidladi.

O'z navbatida, gubernator F.Brayant samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, davlatimiz rahbari Shavkat

Mirziyoyevga AQSh Prezidenti Donald Trampning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda turli darajalarda muloqotlar sezilarli faollashgani, o'zaro savdo hajmi ikki barobar ortgani, investitsiyalar, agrar majmua, sanoat, transport, turizm va gumanitar almashinuv sohaslarida hamkorlik bo'yicha qo'shma dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuviyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston bilan Missisipi shtati o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi. Qishloq xo'jaligi, biotexnologiyalar va agrokimyo, o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik, to'qimachilik va logistika sohaslarida, avvalo, AQShning ilg'or texnologiya va ilm-fan yutuqlarini joriy etish asosida zamonaviy klasterlar va ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish orqali istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Muayyan loyiha va dasturlarni tayyorlash va amalga

oshirish bo'yicha ikki tomonlama komissiya faoliyatini yo'lga qo'yish xususida kelishuvga erishildi.

Shuningdek, joriy yil 16-17-may kunlari Navoiy shahrida AQSh va Kanadaning 40 ortiq kompaniyasi ishtirokida bo'lib o'tadigan O'zbekiston — AQSh — Kanada biznes-forumi ishbilanmon doiralari o'rtasida uzoq muddatli sheriklik aloqalarini o'rnatishga xizmat qilishi qayd etildi.

AQSh delegatsiyasi a'zolari O'zbekistonda sifat jihatidan yangi bosqichda amalga oshirilayotgan, barcha soha va yo'nalishlarni qamrab olgan islohotlar natijadorligiga yuksak baho berdi. Idoralararo muloqotlarni faollashtirish va qo'shma tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga tayyorlik bildirildi.

Uchrashuv yakunida tomonlarning O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi intilishi qat'iy ekanini ta'kidlandi.

O'ZA

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

## OLY TA'LIM MUASSASALARIGA TEST SINOV LARI ORQALI QABUL QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Qayd etish lozimki, 2018/2019-o'quv yilida ilk marotaba oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish uchun test sinovlari ochiq maydonli binolarda o'tkazildi.

Imtihonlarni oshkora va shaffof tarzda o'tkazish maqsadida abituriyentlar binoga kirishda shaxsni identifikatsiyalash qurilmalari yordamida tekshirildi, test sinovlari kuzatuv kameralari yordamida nazorat qilindi. Ushbu jarayonlar abituriyentlarning o'ta-onalari uchun bevosita katta monitorlarda, Internet tarmog'i va televideniye orqali to'g'ridan to'g'ri namoyish qilindi.

Shu bilan birga, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirgan holda, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishda o'tkaziladigan kirish test sinovlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, shuningdek, yoshlarning ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantirish maqsadida abituriyentlarning bir nechta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish lozim.

Mamlakatimizni yanada rivojlantirish uchun oldimizda turgan ustuvor vazifalarni professional darajada bajarishga qodir yoshlarni tarbiyalash, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (keyingi o'rinalarda — Davlat test markazi), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligining quyidagi tashkilotlari ma'qullansin:

2019/2020-o'quv yili qabulidan boshlab abituriyentlarga oliy ta'lim muassasalarining test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi bir xil bo'lgan uchtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishida tanlovda ishtirok etish huquqini berish;

2019/2020-o'quv yili qabulidan boshlab oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilish bo'yicha kirish test sinovlarini iyul-avgust oylarida o'tkazish;

2020/2021-o'quv yili qabulidan bosh-

lab test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasini ikki bo'limga ajratib, birinchi bo'limga barcha test topshiruvchilar uchun majburiy uchta fan — ona tili (o'zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va O'zbekiston tarixi, ikkinchi bo'limga abituriyent tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos ikkita fanni kiritish;

test sinovlari tashkil etilayotgan o'quv yilidan avvalgi yillarda ta'lim muassasalarini tugatgan abituriyentlardan (nogironligi bo'lgan yoki to'liq davlat ta'minotidagi shaxslar bundan mustasno) test sinovlarida ishtirok etishi uchun eng kam ish haqining yarim baravari miqdorida to'lov undirish;

abituriyentning test sinovidan to'plagan ballari haqidagi ma'lumotni test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani bo'yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan tarlov natijasini test sinovlarini o'tkazish jarayoni to'liq yakunlangandan keyin bir hafta muddat ichida Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilish.

2. Belgilab qo'yilsinki:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, test topshiriqlari soni hamda test sinovlarini o'tkazishning aniq muddatlari O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi;

2019/2020-o'quv yili qabulidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalariga bakalavriatga o'qishga kirish uchun abituriyentlar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladilar.

3. Davlat test markazi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Davlat test markazi faoliyatini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinalarda — Jamg'arma) tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Quyidagilar Jamg'armani shakllantirish manbalari etib belgilansin:

oliy ta'lim muassasalarining oshirilgan to'lov-kontrakt tushumlari (5 foizgacha miqdorda);

Davlat test markazi tomonidan shartnoma bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatishdan tushgan mablag'lar; abituriyentlardan test sinovlarida ishtirok

etishi uchun undirilgan to'lovlar;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari hamda texnik ko'maklashish mablag'larini;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar.

4. Belgilansinki, Jamg'armaning mablag'lari foizdagi ulushi chegaralanmagan holda quyidagi maqsadlarga sarflanadi:

Davlat test markazining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

Davlat test markazi xodimlarini, shu jumladan, xorijiy davlatlarning ilmiy-tadqiqot, ta'lim va boshqa muassasalarida o'qitish, malakasini oshirish va stajirovka o'tash;

Davlat test markazining fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega xodimlarga 30 foiz, fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoxud xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega xodimlarga oylik ish haqining 35 foizi miqdorida ustamarlar to'lab berish;

Davlat test markazi xodimlariga lavozim maoshining 200 foizgacha bo'lgan miqdorda oylik ustamarlar va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlarni amalga oshirish;

fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlar va xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni Davlat test markaziga ishlash uchun jalb etish;

test sinovlari jarayoniga jalb etilgan ishtirokchilarga (bino rahbari va guruh nazoratchilari) ish haqi to'lash;

test sinovlari o'tkaziladigan binolarning ijara to'lovlari amalga oshirish;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan Davlat test markazi faoliyati bilan bog'liq boshqa chora-tadbirlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini

rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha, test sinovlari o'tkaziladigan binolarni jihozlash uchun olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan uskunalar (shaxsni identifikatsiyalash vositalari, video qayd qilish qurilmalari, barmoq izlarini tekshiruvchi, mobil aloqa to'lovlari to'suvchi vositalar, metall detektorlar hamda monitorlar) 2022-yil 1-yanvargacha bo'jxona to'lovlari (bojxona yig'implaridan tashqari) ozod qilinsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

mazkur qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda Davlat test markazining xodimlarning cheklangan soni 186 nafardan iborat bo'lgan yangilangan tuzilmasini tasdiqlash va uning faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risidagi Hukumat qarorini bir oy muddatda qabul qilsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy markazlarida Davlat test markazlari hududiy bo'limlarini joylashtirish va kelgusida test sinovlarini o'tkazish maqsadida o'tkazish maqsadida yengil konstruksiyali materiallardan katta yengil imli bino va inshootlarni qurish bo'yicha bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-noyabrda

PQ-3389-son "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

8. Davlat test markazi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasi takliflar kiritilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2019-yil 14-may

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

# BAXSHICHILIK SAN'ATINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'IRISIDA

Xalqimizning milliy o'zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san'ati atqoli baxshi-shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiy tafakkuri bilan asrlardan asrlarga o'tib kelmoqda.

Xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan ushbu noyob san'atni asrab-avaylash va rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtimizda "Alpomish" dostonining ming yilligi keng nishonlangani, Termiz shahrida bu ulug' badiiy obida sharafiga, Samarqand shahrida atqoli baxshilarimiz xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilgani, davlatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" faxriy unvoni ta'sis qilinganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda Termiz shahrida baxshichilik maktabi, respublikamizdagi bolalar musiqa va san'at maktablarida folklor sinflari faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda ko'p tomlik "Qoraqalpog' folklori" to'plamlari chop etildi, 100 tomlik "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" majmuasi nashr etilmoqda. Baxshi-shoirlar tomonidan ijro etilayotgan asarlarni yozib olish, ularni ilmiy o'rganish ishlari davom etmoqda.

Yaqinda Termiz shahrida ilk bor o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali xalqaro miqyosdagi yirik madaniy hodisa sifatida keng e'tirof etilgani alohida e'tiborga loyiq.

Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda folklor san'atiga e'tibor va qiziqish susayib borayotgani, ko'p joylarda unutilib, himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib turgani kuzatilmog'da.

Xalqimiz madaniyatining hayot-baxshisarchashmasi bo'lgan baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san'atimizdagi o'rni va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi va Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida davlat muassasasi shaklida Respublika Baxshichilik

san'ati markazini (keyingi o'rinlarda — Markaz) hamda uning huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasini (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etish haqidagi takliflari ma'qullansin.

2. Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

baxshichilik san'atining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish va mustahkamlash;

sohada shakllangan ijodiy maktablarning o'ziga xos ijro uslublari, "ustoz-shogird" an'analari qayta tiklash va rivojlantirish;

baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari va boshqa ta'lim muassasalari qoshida baxshichilik san'ati to'garaklarini tashkil etish;

baxshi-shoirlar ijodiga keng yo'l ochib berish, ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlarda ularning faol ishtirokini ta'minlash;

baxshichilik san'atining sara namunalari to'plash va fondini yaratish, ularning audio va video variantlarini ko'paytirish, bu sohani yurtimizda va dunyoda keng targ'ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televideniye va Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

baxshichilik san'ati yo'nalishida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bu borada o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, jumladan, turli xalqaro anjumanlar va tanlovlar, konsertlar va mahorat darslarini tashkil etish.

3. Jamg'armaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

moliyaviy va tashkiliy yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida baxshichilik san'atini yanada rivojlantirishga ko'maklashish; mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan baxshi-shoir, oqin va jirovlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarni baxshichilik san'atiga oid zarur adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar va davriy nashrlar bilan ta'minlash;

madaniyat va san'at muassasalari qoshidagi baxshichilik to'garaklarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zarur cholg'ular va jihozlar bilan ta'minlash;

baxshichilik san'ati bilan bog'liq ilmiy-tadqiqotlar, nashr ishlari hamda

kompleks ilmiy ekspeditsiyalarni moliyalashtirish;

baxshichilik san'atiga doir homiylikni rivojlantirish, sohaga xorijiy sarmoya va grantlarni jalb etish;

qonunchilikda belgilangan manbalardan tushadigan mablag'larni jamg'arish, ulardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash.

4. Quyidagilar:

Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga;

Respublika Baxshichilik san'ati markazining tarkibiy tuzilmasi 2-ilovaga;

Respublika Baxshichilik san'ati markazi huzuridagi Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi Kengashining tarkibi 3-ilovaga;

Respublika Baxshichilik san'ati markazi huzuridagi Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi ijrochi direksiyasi tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziriga, zarurat bo'lganda, Markaz va Jamg'arma tuzilmalariga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi:

ikki oy muddatda Markaz va Jamg'arma faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qaror loyihisini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин. Bunda Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari nazarda tutilsin;

Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi hamda Surxondaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda ikki oy muddatda Termiz shahridagi baxshichilik maktabi negizida baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan Respublika maktab-internatini tashkil etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritсин;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda baxshichilik san'ati rivoji uchun zarur bo'lgan musiqa cholg'ulari (do'mbira, sibizg'a, chanqovuz, qo'sh-nay, g'ajiray, bo'lamon, qo'biz kabilar) ishlab chiqaradigan ustalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ustaxonalar uchun joy ajratish, maxsus

yog'och va metall mahsulotlari bilan ta'minlash choralari belgilasin;

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi bilan birgalikda baxshi-shoir, jirov va oqinlar tomonidan ijro etiladigan asarlar kuylarini notalashtirish ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirсин;

UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan birgalikda o'zbek xalqining ko'hna va betakror san'ati namunasi bo'lgan baxshichilik san'atini UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirсин;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida baxshichilik san'ati davlat ansambllarini, ushbu san'at turi rivojlangan boshqa hududlarda esa viloyat ansambllarini tashkil etsin;

tegishli hududlarda bolalar musiqa va san'at maktablari qoshida baxshichilik san'ati sinflarini tashkil etsin;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritсин.

6. Surxondaryo viloyati hokimligi Markaz va Jamg'arma uchun bino ajratish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda avtotransport vositasi bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

7. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi va boshqa ommaviy axborot vositalariga ustoz baxshilar va dostonchilar, yosh ijrochilar, baxshichilik san'ati durdonasi hisoblangan mashhur dostonlar haqida ko'rsatuv va eshittirishlar, maqolalar tayyorlash va e'lon qilib borish hamda mazkur qarorda belgilangan tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o'rinbosari F.Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2019-yil 14-may

## QURILISH MATERIALLARI NARXINI ARZONLASHTIRISH BO'YICHA VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-may kuni qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bunyodkorlik ko'lami yanada kengayib, yuzlab uy-joylar, yirik sanoat korxonalari, madaniyat va sport maskanlari, yo'l va ko'priklar barpo etildi.

Raqamlar bilan aytganda, keyingi ikki yilda qurilish ishlari hajmi 1,7 barobar oshgan. Ularda asosan yurtimizda ishlab chiqarilgan materiallardan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, keramik va yog'och-qipiq plitalar, oyna, gulqog'oz va boshqa materiallar import qilinmoqda. Aslida O'zbekistonda zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, import o'rni qoplash uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Mamlakatimizda bunyodkorlik ishlari tobora ortib borayotgan bugungi kunda qurilish materiallari iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga, o'sish nuqtalaridan biriga aylanishi kerak. Korxonalarda energiya samarador texnologiyalarni

joriy etish orqali tabiiy boyliklarimizni tejash, materiallar narxini tushirish mumkin, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda qurilish materiallari sohasida ishlab chiqarishni kelgusi besh yilda kamida ikki barobar oshirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Noruda konlar zaxiralarini oshirish, sanoat usulida qayta ishlashni kengaytirish, qurilish materiallari sohasini diversifikatsiya qilish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz soha korxonalarini barqaror va kamxarj energiya bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Ko'mir ishlatiladigan birgina g'isht zavodi misolida mahsulot narxini 50 foizgacha tushirish mumkinligi qayd etildi. Shu kabi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash katta miqdorda tabiiy gazni tejash, mahsulotlarni arzonlashtirishga xizmat qilishi

ta'kidlandi. Bu ham tadbirkorga, ham xalqqa, ham davlatga foyda keltiradi.

Shu bois qurilish materiallari tarmog'ida energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish orqali tannarxni kamaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Mamlakatimiz qurilish materiallari sanoatining eksport salohiyati ham yuqori. Lekin avtotransport xarajatlari ko'pligi ularning narxiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois eksport tovarlarini tashish xarajatlarini subsidiyalash taklifi bildirildi.

Joriy yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Andijon va Navoiy viloyatlarida har biri 2 million tonna quvvatga ega 4 ta sement korxonasi ishga tushirildi.

Yil yakuniga qadar 3,5 million tonna quvvatli yangi zavodlar foydalanishga topshirilib, yillik salohiyat 15 million tonnaga yetkaziladi. Bu sementga bo'lgan ichki talabni ta'minlab, narxini arzonlashtirish imkonini berishi qayd etildi.

2019-2020-yillarda sohada 17 trillion so'mlik mingdan ziyod loyihani amalga

oshirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar uchun tijorat banklari kreditini ajratish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, past rentabelli korxonalarni salohiyatli investorlarga sotish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislar kerak. Lekin oliy o'quv yurtlarida mavjud o'rinlar ishlab chiqarishda o'sib borayotgan talabga mos emas. Ta'lim jarayoni amaliyot bilan bog'lanmagan.

Shu bois yig'ilishda soha ixtisosliklariga budjet kvotasini oshirish, korxonalarda o'quv amaliyotini tashkil etishni takomillashtirish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yangi texnologiyalar asosida malaka oshirish markazlari tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilar hisobot berdi.

O'ZA

Yil o'qituvchisi — 2019

## O'zgargan talablar va natijalar

"Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi — 2019" ko'rik-tanlovining shahar bosqichi yakunlandi. Fan o'qituvchilari orasidan ilg'or, ijodkor, mahoratli, tashabbuskor, fidoyi pedagoglarni aniqlashga qaratilgan tanlov o'ziga xos tarzda tashkil etildi. Unda kimyo, fizika, matematika, informatika va axborot texnologiyasi, davlat va huquq asoslari, o'zbek tili, ingliz tili, ona tili, biologiya, geografiya, boshlang'ich ta'lim, jismoniy tarbiya va musiqa o'qituvchilari g'oliblik uchun bellashdi.

— Tanlov nufuzini yanada oshirish, g'oliblarni aniqlashda haqqoniylikni ta'minlash maqsadida uni o'tkazish tartibiga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, — deydi Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Nigora Ikromova. — Jumladan, bu yil 2-toifaga hamda uch yillik malaka stajiga ega bo'lgan o'qituvchilar ilk bor onlayn hujjat topshirishdi va test jarayoni ham onlayn o'tkazildi. Tanlovni markazlashgan holda boshqarib borish, o'qituvchilar bilim saviyasini hududlar hamda fanlar kesimida tahlil qilish imkoniyati oshdi. Birinchi bosqichda 76 baldan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan 11 ta fan o'qituvchilari shahar bosqichida qatnashdi.

E'tiborlisi, bu yil tanlov qatnashchilaridan talab qilinadigan hujjatlar soni 10 tadan 5 tagacha qisqartirildi va ularni elektron yo'llash imkoniyati berildi. Masalan, o'qituvchi dars pasporti, portfoliosi, tashkiliy tadbirlardan lavhalar to'plami kabi qog'ozbozlikni keltirib chiqaruvchi hujjatlar talab etilmadi. Pedagoglarning o'ziga nisbatan talabchanlik bilan ishlashi, mashg'ulotga sidqidildan yondashishi ham ortgan. Avvalgi yillarda barcha turlarda bo'lgani kabi dars o'tish uchun yashirin mavzu tanlanardi. Bu yil esa o'qituvchi tanlov chog'ida kompyuterda

yaratgan dars ishlanmasi asosida keyingi turda mashg'ulot o'tib berdi. Zero, nazariy bilimning qanchalik puxta ekani amaliyotda o'z aksini topdi.

Hakamlar hay'ati a'zosi, professor Habibulla Tojimuhammedovning aytishicha, ijobiy o'zgarishlar qatorida ayrim kamchiliklar ham yo'q emas. Tabiiy fanlar bo'yicha darsda o'tiladigan laboratoriya ishlari uchun reaktiv va kimyoviy idishlar yetishmaydi. Bu o'qituvchilarning kimyoviy laboratoriya xavfsizlik va texnik qoidalarini nafaqat chuqurroq bilishida, balki o'quvchilarga o'rgatishida ham muammo tug'diradi.

Shahar bosqichida g'olib bo'lgan o'qituvchilar may oyidan avgust oyining oxirigacha "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida o'zining xolis fikrlari, ta'lim sifatini oshirishga qo'shgan hissasi yoritilgan materiallarni joylab borishi kerak. Uch oy davomida eng ko'p mushtariy muhokamasida bo'lgan, eng ko'p ijobiy fikr to'plagan, zamonaviy ta'lim yangiliklaridan boxabarligi isbotlangan post egasiga ko'rik-tanlovning uchinchi bosqichi uchun 20 ball beriladi. Ushbu bahoga munosib topilmagan ishtirokchilar navbatdagi turga o'tkazilmaydi.

Shoira BOYMURODOVA,  
«Marifat» muxbiri

## O'zbekistonda AKT va ingliz tilini o'qitish rivojlantiriladi

### Buning uchun USAID 165 milliard so'm taqdim etadi

AQSh hukumati [www.grants.gov](http://www.grants.gov) veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotga ko'ra, AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) O'zbekistonda xalq ta'limi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ingliz tilini o'qitishni rivojlantirish uchun 19,5 million AQSh dollari (165 milliard so'm) miqdorida grant taqdim etish haqida qaror qabul qildi.

Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatining bildirishicha, ushbu mablag' maktab boshqaruviga, o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishga hamda o'qituvchilarning mazkur o'quv qo'llanmalardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha bilimlarini oshirishga sarflanadi. Qolaversa, mazkur loyiha yordamida ta'lim muassasalarida shaffoflik ta'minlanib, maktab boshqaruvini rivojlantirish usullari va strategiyasi ishlab chiqiladi.

Xususan, loyiha Xalq ta'limi vazirligining o'quvchilarning axborot texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan "IT Nation" dasturini amalga oshirishda ilmiy asoslangan strategiya yaratishda ko'mak beradi.

E'tiborlisi, ushbu loyiha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan besh tashabbusning uchinchi yo'nalishi amalga oshirish hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi tizimda tashkil etishda o'z hissasini qo'shadi. Eslatib o'tamiz, besh tashabbusning uchinchi yo'nalishi aholi va yoshlarning kompyuter hamda internetdan samarali foydalanishini tashkil etishga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, ta'lim sohasidagi muammolardan biri o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini obyektiv baholash vositalarining yo'qligidir. USAID ko'magida yurtimiz umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish va matematika (EGRA va EGMA) fanlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib boriladi. Ushbu tadqiqotlar o'g'il-qizlarning bilimidagi bo'shliqlarni aniqlashga yordam beradi va muammolarni bartaraf etish choralari ko'riladi.

Shuningdek, USAID mazkur loyiha davomida Xalq ta'limi vazirligiga zamonaviy ta'lim usullarini joriy etish yo'llari bilan bir qatorda mamlakatimiz maktablarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan "English speaking nation" dasturini amalga oshirishda yordam beradi.

Eslatib o'tamiz, taqdim etilgan mazkur grant Xalq ta'limi vazirligi hamda AQSh hukumati o'rtasidagi ta'lim sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hamkorlik doirasida amalga oshirilgan dastlabki loyihalardan biri hisoblanadi.


MUXBIRIMIZ

## Jarayon

# Musobaqalar o'quvchi shijoatini so'ndirmasin!

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Bu yil ingliz tili fanidan bellashuvning 2-bosqich imtihonlari 2 kunda o'tkazildi. Birinchi kuni o'quvchilar bilimi tinglab tushunish, o'qish shartlari, ikkinchi kuni test savollari orqali sinaldi. Aynan ikkinchi kungi bahslarga e'tirozim bor. Test sinovlari qaysi maktabda o'tkazilsa, o'sha maktab xodimlarida o'z o'quvchilariga ko'maklashish imkoni paydo bo'larkan. Shuningdek, apellatsiya berish tartibi ham mukammal emas. Jumladan, nizomda jarayon qanday bo'lishi ham tushuntirilgan. Ya'ni o'quvchi natijadan norozi bo'lsa, apellatsiya berishi mumkin. E'tirozli jihati, buni bellashuv natijalari e'lon qilingan vaqtning o'zida, auditoriyadan chiqmay bajarish shart. Shuningdek, norozi o'quvchiga faqat o'zining ishi ko'rsatiladi, xolos. Bu ham e'tirozli. Birinchidan, natijalar asosan kech mahal — soat 20.00 dan keyin e'lon qilinadi. Bu vaziyatda 5—8-sinf o'quvchisining shikoyat qilish uchun imkoniyati qanday bo'lishi mumkin? Mabodo shunga o'zida kuch va iroda topsa ham, o'z ishi ko'rsatilsa, testdagi xatolikni yoki jarayonda bo'lgan nohaqlikni qanday va kimga isbotlab beradi?



Shu o'rinda o'zim guvohi bo'lgan voqea bilan fikrimni to'ldiraman. Bir o'quvchi 4-o'rinni egalladi. 1-o'rinni olgan raqibining bali bilan uniki orasidagi farq uncha katta emasdi. Apellatsiya tartibida shikoyat qildi. Mutaxassislariga o'z ishi to'g'riligini isbotlab, imtihonda tushgan test savollaridagi xatolarni ko'rsatib berdi. Natijada unga ball qo'shilib, 3-o'ringa ko'tarildi. Birinchi o'rindagi o'quvchi bilan uning bali orasidagi farq juda yaqinlashdi. Shu bois birinchi va ikkinchi o'rinni egallaganlarning ishini ham ko'rsatishlarini talab qildi. Ular shu savollarni xato belgilagan bo'lishi mumkinligini, bu vaziyatda ulardan ball ayirish kerakligini ta'kidladi. Ammo tashkilotchilar o'quvchining talabini qondirmadi.

Shu o'rinda savollardagi xatoliklarga ham to'xtalib o'tmoqchiman. Bilimlar bellashuvining tuman bosqichida 8-sinf ingliz tili kesimida berilgan savollarning aksariyati mukammal tuzilmagan. Masalan, 15-savolga e'tibor beramiz:

**"Thank you. That's all."**

Javob variantlari:

A) Please; B) Welcome; C) No; D) You are welcome.

Ochig'i, boshida savolga tushunmadim. Keyin 8-sinf ingliz tili darsligidan jumboqqa yechim topdim. Darslikning 29-betidagi 4-mashqda suhbat berilgan. Suhbatdagi so'nggi ikkinchi gapini o'qisangiz, 15-savol shunchaki kontekstdan "yulib" olinganini ko'rish mumkin. 14-savol ham xato tuzilgan. Variantlar orasida

O'quvchilarni rag'batlantirishga qaratilgan musobaqalarda yo'l qo'yilayotgan bu kabi xatolar bolalarning shijoatini so'ndirib qo'yamayptimi? Agar jarayonni adolatli tashkillashtirishni istasak, birinchi navbatda, nizomga o'zgartirish kiritish zarur. Tashkiliy qismni ham qayta ko'rib chiqish lozim.



to'g'ri javob yo'q. 3-savolda ham kichik xatolik bor, zamon noto'g'ri qo'llangan. Hatto 1-savolda ham so'zlar noto'g'ri joylashgan.

O'quvchilarni rag'batlantirishga qaratilgan musobaqalarda yo'l qo'yilayotgan bu kabi xatolar bolalarning shijoatini so'ndirib qo'yamayptimi? Agar jarayonni adolatli tashkillashtirishni istasak, birinchi navbatda, nizomga o'zgartirish kiritish zarur. Tashkiliy qismni ham qayta ko'rib chiqish lozim. Masalan, maktab doirasida fanni tanlashda o'quvchiga erkinlik berilishi lozim. Imtihonlar yanada jiddiy nazorat qilinishi, iloji boricha hakamlar boshqa tumanlardan jalb qilinishi, o'quvchilarning test kitoblari ham DTM testi kabi shifrlangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Test onlayn o'tkazilsa, yana ham yaxshi. Javoblarni esa har bir tumanda alohida ishchi guruhi tekshirishi kerak. Apellatsiya berish tartibini ham o'zgartirish zarur. Hech bo'lmaganda, javoblar e'lon qilinganidan so'ng 1 hafta davomida istagan o'quvchi test kitoblarini va o'zi yoki boshqa ishtirokchining javobini ko'rish imkoniga ega bo'lsin. Bu ham o'quvchiga xatolari ustida ishlash va tengqurlaridan o'rganish imkonini beradi. Adolat va shaffoflik ta'minlanadi.

Ravshan MATMUSAYEV

## Bugunning gapı


## Kam quvvatli maktablar ham endi faol

— Yunusobod tumanidagi 39 ta maktabdan 13 tasi kam quvvatli hisoblanadi, — deydi tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Gulchehra Yoqubova. — Prezidentimizning 2018-yil 21-dekabr kuni Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishish chog'ida bergan topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi yo'l xaritasi ishlab chiqdi. Unga ko'ra quvvatiga nisbatan o'quvchi soni kam bo'lgan maktablar nufuzini oshirish, ushbu muassasalarda o'quv-tarbiya muhitini yaxshilash rejalashtirilgan.

Tumandagi 21-maktab ham ana shunday ta'lim muassalaridan hisoblanadi. 960 o'quvchi o'rniga mo'ljallanganiga qaramay, hozir maktabda 686 nafar o'quvchi tahsil olyapti. Ammo keyingi vaqtda bu ilm maskanida e'tirofga arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktab 2018-yili "Obod mahalla" dasturi doirasida kapital ta'mirlandi. Bunga qadar bino ancha eskirgan, ta'mirtalab ahvolda edi. Hozir esa o'quvchilar isitish tizimi tamoman yangilangan, moddiy-texnik bazasi yaxshilangan zamonaviy binoda bilim olyapti. Katta yer hududiga egaligi inobatga olinib, maktabda ikkita futbol hamda basketbol, voleybol, katta tennis maydoni barpo etildi.

— Har oyning oxirgi juma kuni maktabimizda ochiq darslar tashkil etilayotgani o'qituvchilarning o'z usti-



da ishlayotgani, darslarning sifati va samaradorligi yuqoriligini namoyish etishga imkon beryapti, — deydi maktab rahbari Nurmuhhammad Ahmedov. — Tuman xalq ta'limi bo'limi hamda ota-onalar hamkorligida maktab hududini

nazorat qilib, bu yerda yashovchi o'quvchilar nima uchun boshqa maktablarda o'qishni afzal ko'rayotgani sabablarini o'rganyapti. O'rganish chog'ida maktabimizdagi ta'lim samaradorligi va to'garaklar faoliyatini

aks ettiruvchi bukletlar tarqatilyapti. Natijada ko'plab ota-onalar uzoqdagi maktabga qatnab o'qiyotgan farzandini dastlab to'garaklarimizga olib kelib, asta-sekinlik bilan ta'limni to'liq bizning maktabimizda davom ettirish istagi paydo bo'layotganini aytishmoqda. Aholi ehtiyojlarini inobatga olgan holda joriy o'quv yilida ta'lim rus tilida olib boriladigan 1-sinf ham tashkil etdik. Endi mazkur guruhlarini yuqori sinfda ham rusiyazon o'qituvchilar bilan ta'minlash maqsadida pedagoglarimizni qayta tayyorlov kurslarida o'qityapmiz.

Kuni kecha muassasada "Maktabimiz o'quvchi yoshlari tarbiyasida ota-onaning roli va mas'uliyatini kuchaytirish, oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini yanada oshirish" mavzusida o'quv-amaliy seminar tashkil etildi. Unda tumandagi ko'plab maktablarning rahbar o'rinbosarlari, o'qituvchilari, mahalla faollari ishtirok etdi. Tumandagi boshqa kam quvvatli maktablardan qatnashgan vakillar ushbu seminar o'zaro tajriba almashdilar.

Zilola MADATOVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

## Maktab kutubxonasiga tuhfa

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus bo'yicha poytaxtimizdagi 83-maktabda amalga oshirilayotgan ishlar sarhisobiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Alisher Qodirov hamda Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Alisher Umarov boshchiligida 5 tashabbusning mazmun-mohiyati, uni hayotga tatbiq etish, yoshlarni ma'naviy barkamol va kitobxon qilib tarbiyalash, ularni ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar to'g'risida hamda yoshlar qalbida fidoyilik, yurt ravnaqiga daxldorlik hissini uyg'otish, yoshlar ma'naviyati va ma'rifatini oshirish xususida davra suhbatlari o'tkazildi.

O'quvchilarning sport, musiqa, san'at yo'nalishida erishgan



yutuqlari hamda qo'l mehnati bilan tayyorlagan san'at asarlari ko'rgazmasi namoyish etildi.

Alisher Qodirov maktab jamoasi bilan kechgan taassurotlarga boy uchrashuvda maktab kutubxonasiga 100 dan ortiq badiiy adabiyot taqdim etdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi matbuot xizmati

## “Xalq kutubxonasi” xalq xizmatida

Prezidentimiz 28-fevral — 1-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi chog'ida “Namanganni eng kitobxon viloyatga aylantiramiz!” deya viloyat aholini kitobxonlikka chorlagan edi. Ushbu chorlovdan so'ng viloyatga poytaxtdan 1 million dona kitob keltirildi. Hokimlar, turli tashkilotlarning katta-kichik rahbarlari, deputatlar, ziyolilar o'zlari o'qigan maktablarga kitoblar sovg'a qilishdi. Davlatimiz rahbari ilgari surgan 5 tashabbus bo'yicha ham viloyatda muayyan ishlar amalga oshirilmog'ida.

Namangan tumani Sho'rqo'rg'on qishlog'ida ilk marotaba “Xalq kutubxonasi” foydalanishga topshirildi. Ahamiyatlisi, mazkur ezgu tashabbus ziyolilar, tadbirkorlar tomonidan xayriya asosida yo'lga qo'yildi. Uni qo'llab-quvvatlagan qishloq ahli yangi kutubxonani kitoblar bilan to'ldirishga hissa qo'shdi. Hozir kutubxonada 60 million so'mlik 3 mingdan ziyod turli adabiyotlar mavjud.

“Xalq kutubxonasi”ning ochilish marosimida qatnashgan ijodkorlar,

jurnalistlar, tuman hokimi o'rinbosarlari, sektor rahbarlari “Obod qishloq” dasturi asosida Sho'rqo'rg'on bajaranlayotgan ulkan bunyodkorlik ishlariga, chiroy ochayotgan manzillarga guvoh bo'lishdi.

Ziyo ulashuvchi mo'jazgina kutubxonadagi mazmunli, qiziqarli badiiy, ilmiy, huquqiy, ommabop adabiyotlar ko'zlarni quvontirdi.

— Ushbu sana qishlog'imiz tarixida unutilmas kun sifatida muhurlanadi. Chunki odamlarda mutolaaga ishtiyoq, kitobga mehr baland ekaniga

yana bir karra ishonch hosil qildik. Sho'rqo'rg'onimizda ilk bor kutubxonada ochilgani ayni muddao bo'ldi. Bunda bizga yaqindan yordam berganlarga minnatdorlik bildiramiz, — deydi sho'rqo'rg'onlik Zayniddin Burhonov. — Hozir 2 nafar singlimiz ishli bo'ldi. Ular kutubxonadan foydalanish qoidalarini aholiga tushuntirmog'ida. Hamqishloqlarimiz kutubxonadan bepul va erkin foydalanadi. O'quvchilar qulay elektron dastur asosida a'zolar ro'yxatiga kiritiladi va belgilangan muddatlarda kitoblarni o'qib qaytaradi. Elektron variantda o'qish istagidagilar uchun “Telegram”dagi kanalimizga yangi nashrlar haqida ma'lumotlar, badiiy asarlarning elektron shaklini joylab boramiz.

Orifjon JO'RAYEV,  
jurnalist

## Kompetentlik — ta'lim mezonlari

Olot tumanidagi 2-maktabda “Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan dars — ta'lim sifatini oshirishda muhim omil” mavzusida viloyat seminari tashkil etildi. Tadbirda boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish metodlariga asoslangan ochiq mashg'ulot o'tildi. Mashg'ulotlarga viloyatning barcha tumanlaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, XTB metodistlari taklif etildi.

Tadbir doirasida “Ochiq darslar yarmarkasi” o'tkazildi. 1-“A”, 1-“B”, 1-“V”, 3-“B”, 2-“B”, 4-“A”, 4-“G”, 4-“V” sinflardagi darslar kuzatildi va tahlil qilindi.

Bundan tashqari, BuxDU “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasida dotsenti F.Qosimov “Ko'pyoqlar. Fazoviy figuralar. Koordinata chiziqlari” mavzusida trening o'tkazildi.

Buxoro viloyat TXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari” kafedrasida o'qituvchisi S.To'rayeva “Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim sifatini xalqaro baholash dasturlari talabi darajasida tayyorlash” mavzusida ma'ruza qildi.

Xalqaro dasturlarning faoliyati, nomi, o'tkazish usullari va ko'zlagan maqsadi haqida seminar ishtirokchilariga umumiy ma'lumot berildi.

Gulchehra XO'JAQULOVA,  
Olot tumanidagi 2-maktab direktori o'rinbosari

## Adabiy qahramonlarimiz

Chilonzor tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan 181-maktabda “Men sevgan adabiy qahramon” mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi.

Tanlovda tumandagi maktablarning 8—11-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. O'quvchilar o'zlari sevgan adabiy qahramonlarni tavsiflab ijodiy ish yozishdi. Tanlov juda qiziqarli bo'ldi. O'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirdi, kitobxonlikka bo'lgan ishtiyoqni oshirdi. Insholar tanlovida, ayniqsa, tumandagi 202-maktabning 9-sinf o'quvchisi Muxlisa Qobiljonova, 179-maktabning 10-sinf o'quvchisi Nafosat Rahimberdiyeva va 281-maktabning 8-sinf o'quvchisi Farangiz Mahmudovanning ijodiy ishi sermazmunligi, qahramonlar xarakteri yorqin ifoda etilganligi, taassurotlarga boyligi bilan hakamlar hay'ati e'tirofiga sazovor bo'ldi.

— Bunday tanlovlar o'quvchilarimizning og'zaki va yozma nutqini yanada rivojlantirib, ijodiy fikrlash darajasini oshiradi. Ularni adabiy qahramonlar hayoti bilan yaqinroq tanishishga, olijanob fazilatlarini o'zida mujassamlashtirishga undaydi. Kitob bilan oshno bo'lgan o'quvchidan yomonlik chiqmaydi, — deydi hakamlar hay'ati raisi, 162-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Muqaddamxon Maqsudova.

Nigora RAJABOVA,  
Chilonzor tuman XTB metodisti

### O'qituvchi

### nimani

### o'ylaydi?



Yozgi ta'til yaqinlashgani sari sog'lomlashtirish oromgohlari haqida o'ylab qolaman. Boshqa joylarda ham o'quvchilar majburiy maktab oromgohiga jalb qilinadimi? Agar maktabda oromgoh bo'lmasa, qanday qilib sog'lomlashtirish bo'lsin. Tushgasha bolalarni turli to'garaklarga jalb qilib, tushlik mahali uyiga jo'natish to'g'rimi? Sinfxonalar issiq, ayvunchalar yo'q. Qaysi ota-ona farzandining ta'tili mana shunday o'tishini xohlaydi?! Imkoni borlar ta'tilni shahar tashqarisida, salqin oromgohda o'tkazishni xohlasa, boshqalar bobo-buvisinikida yoki o'z uyida o'tkazishni ma'qul ko'radi. Bechora o'qituvchilar dam olish o'rniga yana ishlashi kerakmi?!

Yulduz JABBOROVA

O'quv yili boshida o'g'lim Yoshlar ittifoqining maktabdagi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi etib saylandi. O'sha kunlari u ichiga sig'maganidan turli rejalar tuza boshladi, yangiliklar qilmoqchi bo'ldi. O'z takliflarini ittifoqning tuman kengashidagilarga bildirdi, ammo hech qanday natija bo'lmadi. Hafsalasi pir bo'lgach, “Oyi, o'zi bu ishlar maktabga nega kerak?”, dedi. Qanday javob berishni bilmay qoldim.

Dilfuza SUVONOVA

Haqiqiy sifatli dars, bo'rtdi-riboq aytganda, murakkab jarrohlik amaliyotiga o'xshaydi. Shifokorni operatsiya payti hech kim bezovta qilishi mumkinmas. Sifatli darsni ham hech kimning buzishga haqqi yo'q. Mohir pedagog uchun har bir daqiqa muhim: dars — muqaddas.

Gulchehra ASHUROVA

Imloda yakdil to'xtam yo'qligi, yozuvning ikki xilligi o'quvchilarning savod masalasida oqsashiga sabab bo'lmoqda. Birgina misol: haligacha bolalar “Oktabrmi yoki oktyabr?” deyishadi. Hatto kattalar ham tutuq belgisi bilan “o” harfidagi ko'chish belgisini farqlamaydi. Bunaqa misollarni ko'plab keltirish mumkin...

Lobar YOQUBOVA

# Samarqandda sudyalalar kimga xizmat qilyapti?

(Davomi. Boshi 1-betda.)

N.Xudoyqulova 2017-yil 15-noyabr-dan Samarqand shahriga kelib, Rudakiy ko'chasi 7-uyda ijarada turadi va o'sha kundan xat yozish mumkin bo'lgan jamiki idoralarga nogiron bolasi borligini pesh qilib, avval aravacha, keyin boshpana, keyin moddiy yordam, keyin ish, keyin uy so'rab xat yoza boshlaydi. Prezident qabulxonasi ustma-ust qilgan murojaatlari o'rganilib, tegishli yordam beriladi, ammo uning diplomini bilan u so'ragan ish va u so'ragan uyni berishning imkonini yo'qligi tushuntiriladi.

Shundan keyin nogiron qizini sudrab, barcha idoralarning rahbarlariga «hujum» boshlaydi. Shahar va viloyat xotin-qizlar qo'mitalari raisidan boshlab, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisigacha, shahar va viloyat hokimlaridan tortib, Xalq ta'limi vazirigacha, hatto Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisgacha tinimsiz shikoyat qiladi.

Adog'i yo'q shikoyatbozlikdan bezor bo'lgan viloyatning sobiq hokimi Turobjon Jo'rayev Nasibaning bolasiga aravacha ham beradi, temir yo'lichlar yotoqxonasiga ham joylashtiradi, eng qizig'i, «Bitta ayolga to'rt soat ish topib beringlar, men shundan qutulay!» deya shahar va viloyat XTB boshliqlariga aytib, Samarqand shahridagi 48-maktabga, N.Xudoyqulova istagan ishga — o'zining 4-sinfda o'qishi kerak bo'lgan nogiron bolasiga uy muallimasi qilib ishga ham joylab qo'yadi.

Nogiron qizining orqasidan maqsadlariga erishayotgan ayolning nafsi hakalaki otib ketaveradi. Endi u viloyat hokimidan nogiron qizi uchun uy so'raydi. Spitamen shohko'chasida qurilgan 161-uydan Xudoyqulovaning nogiron qizi uchun ikki xonali xonadon ajratiladi.

Shu bilan Nasiba Xudoyqulovaning orzulari tugadi desiz? Koshki edi!

Endi u yuqori sinfga o'tgan qiziga alohida fan o'qituvchilari o'tishi shart bo'lgan «10 ta fanni ham o'zim o'qitaman, buning uchun menga to'rt yarim million so'mdan oylik to'laysan, qo'shimcha ham, ustama ham to'laysan», deb talab qila boshlaydi.

Aslida, boshlang'ich sinfga ham bolasiga dars berishga haqi bo'lmagan, kollej diplomiga va bog'chadagi yarim stavkali 2 yil 3 oy 11 kun ish stajiga ega bo'lgan ayol oliy ma'lumotli o'qituvchi ham so'rashga haqli bo'lmagan narsani talab qiladi. Tabiiyki, maktab direktori Shahlo Hasanova uning talabini qondirishning imkonini yo'qligini aytadi va u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qiladi. Bungacha u kasaba uyushmasining ham, shahar va viloyat XTB rahbarlarining ham tegishli qarorini oladi.

N.Xudoyqulova maktab direktorini sudga beradi va Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudidan (ishni chaqirib olgan FIB Samarqand viloyat sudi Xudoyqulovani «O'z ishiga tiklash» talabini qanoatlantiradi. Ya'ni, kollejini

bitirgan, savodi ham haminqadar bo'lgan ayol 5-sinfidan 11-sinfgacha o'z bolasini o'zi o'qitishini qonunlashtirib berdi.

Uyat joyi shundaki, Nasiba Xudoyqulovaniy sudda raislik qiluvchiga «Agar talabimni qondirmasangiz, kecha menikida tunab qolganingizni hammaga oshkor qilaman!» degan gaplari hal qiluvchi rol o'ynaydi. (Sudda ishtirok etganlarning barchasi buni tasdiqladi.)

Bu qarorga na maktab direktori, na shahar, na viloyat XTB ko'nadi. Ular apellatsiyaga berishadi. Ammo apellatsiya sudida FIB viloyat sudi raisi Tojiboyev avvalgi qarorni o'z kuchida qoldiradi. Maktab direktorining vajlari, bunaqa diplom bilan bu ayolga ish berib bo'lmashligi haqidagi e'tirozlari ham, qolaversa, Xudoyqulova hozir boshqa joyda yashayotgani va u hudud boshqa maktabga qarashli ekani ham e'tiborga olinmaydi. Qaytanga unga JKning 232-moddasi eslatib qo'yiladi: «Sud qarorini qasddan bajarmaslik jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi».

Xullas, sud noto'g'ri qaror chiqarib, qonun nomi bilan maktab direktorini noqonuniy ish qilishga majbur qiladi. Sud qarorini ta'minlash maqsadida maktab direktori N.Xudoyqulovaga texnologiya fanidan 1 soat dars berib, ish bilan ta'minlashga majbur bo'ladi. Qolgan darslarni o'tish uchun garchi maktab va uning uyi orasidagi masofa uzoq bo'lsa-da, fan o'qituvchilarini tayinlaydi, ularga alohida dars jadvali tuzadi. Ammo N.Xudoyqulova 10 ta fanni o'zi o'qitish ilinjida birorta o'qituvchini uyiga kiritmaydi. Borgan o'qituvchilarni «Bolamni zaharlaysizlar, o'ldirib ketasizlar», degan tuhmat bilan urib, so'kib haydaydi. 10 ta fanni o'zi o'qitayotgani uchun fantastik maoshni talab qilib, turli idoralarga shikoyatbozlikni boshlaydi.

Uyiga kelgan o'qituvchilarni urib, so'kish bilan qanoatlanmagan Nasiba Xudoyqulova 48-maktabga borib, u yerda ham haqorat qilib, hatto bir necha o'qituvchini, xususan, direktorni, direktor o'rinbosarlarini ham urib ketadi. 23-aprel kuni direktor o'rinbosari Dildora Bo'riyevani homilador ekaniga ham qaramasdan urib, do'pposlab, yuz-qo'llarini, quloqlarini yumdalab tashlaydi. (D.Bo'riyeva tibbiy ekspertizadan o'tgan.)

Sud qaroridan norozi bo'lib, barcha yuqori tashkilotlarga shikoyat qilgan maktab direktorining murojaatlari javobsiz qolgach, u menga murojaat qildi.

Maktabga borib, o'qituvchilar jamoasi bilan subhatlashdim. Barcha bir ovozdan Nasiba Xudoyqulovadan bezorligini, u bilan birga ishlashni xohlamasligini, uning xulqi buzuvchi, tarbiyasiz, o'ta madaniyatsiz ekanini aytdi. Qizini o'qitishga mas'ul bo'lgan o'qituvchilar ham bir ovozdan uning uyiga bormasligini aytdi.

— Bu ayolning ruhiy xasta ekani, juda tajovuzkor ekani ko'rinib turibdi, — dedi keksa va tajribali o'qituvchilar. — Uni xolis psixiatr ishtirokida tibbiy ko'rikdan

o'tkazish shart. Bunaqa tajovuzkor ayolni nafaqat dars berish, balki onalik huquqidan ham mahrum etib, farzandini undan himoya qilish kerak.

Men muallimlar oshirib yuborayotgandir, dedim va bir necha o'qituvchilar bilan birga u yashaydigan uyga bordim. Mahalla faoli va qo'shnilari bilan uning eshigini taqillatdim.

— Kimsan? Kim seni yollagan? Bor, toshingni ter! Avliyo bo'lsang ham uyga kiritmayman!

Birinchi eshitganim shu so'zlar bo'ldi. O'zimni tanishtirgach, eshikni ochdi. Ammo birdan direktor va boshqa o'qituvchilarga tashlandi. Ularni haqorat qilib, ikki o'qituvchining yuziga bir shappatdan urdi.

Bir iloj qilib, ichkari kirdik.

— Sizni ham o'sha yubordimi?

Men «o'sha»ning kimligiga qiziqdim. Xullas, Nasiba bilan suhbatimiz qovushmadi. Uning eshitish qobiliyati mutlaqo yo'q edi. Unda to'xtovsiz gapirish, gapirganda ham baland ovozda, erkaklar ham aytishga uyaladigan so'zlarni, qiliqlarni ishlatib (qo'lini ko'rsatib) gapirish, shang'illash qobiliyati bor edi.

— Kim bo'lsang bo'l, qayerga borsang bor, nima deb yozsang yoz! Senlarni bir tiyinga olmayman! Bolamni o'zim o'qitaman! Menga to'lanmay, yig'ilib qolgan yuz million so'm maoshimni undiraman! Direktorni ishdan oldiraman! Shungacha ishim sud bilan bitgan, maktabini ham, mahallasini ham, hammasini qamataman! Sudlar men tomonda! Senga javob berishga majbur emasman, uyimni bo'shatib qo'y!

Bu so'zlardan keyin uning uyini bo'shatmaslikning iloji yo'q edi...

Men ana shundan keyin u o'sgan mahallaga, o'qigan, ishlagan, yashagan joyga bordim. Biror joyda u haqida bir og'iz iliq so'z eshitmadim. Qaytanga yolg'onchiligiga, qalbaki ishiga guvoh bo'ldim. Mehnat daftarchasida Paxtachi tumanidagi 43-maktabda uch yil ishlagani yozilgan bo'lsa-da, aslida u maktabda bir kun ham ishlamagani oshkor bo'ldi.

— Meni ham «shantaj» qilib, mehnat daftarchasiga sirtqi o'qishga kirishi uchun uch yil soxta staj yozdirib oluvdi, — dedi maktabning o'sha vaqtidagi direktori Boymurod Eshmurodov. (U ham endi bu «ishi» uchun javob beradi!)

Navoiydagi maxsus bog'chada haqiqatan ham ikki yildan oshiqroq vaqt yarim stavka tarbiyachi bo'lib ishlagan, ammo u yerda ham rosa hunar ko'rsatgan ekan.

Bu mojaroga Samarqand viloyat xalq ta'limi boshqarmasi mas'ul xodimlarining munosabati bilan qiziqdim. Ularning so'zlarini batafsil keltirmayman, ammo barchasi N.Xudoyqulovaga juda yomon tavsifnoma berib, sud qarori noto'g'ri ekanini aytdi. Suddan qo'rqib, 48-maktab direktoriga noqonuniy tarzda N.Xudoyqulovani ish bilan ta'minlashni buyurganlarini ta'kidlashdi.

— Aslida, bu ayolni ta'lim sohasiga yaqinlashtirmaslik kerak, — dedi Samarqand shahar XTB mudiri vazifasini bajaruvchi Ro'zimurod Mahmudov. — Ammo u XTBga kelib janjal qilishidan, bizni ham urishi yoki sha'nimizga yomon tuhmat qilishidan qo'rqamiz.

— Sud diplomini hech qanday pedagogik faoliyat ko'rsatish huquqini bermaydigan odamni ishga tiklash haqida qaror chiqarsa chiqaribdi, ammo unga oylik to'lansa, sud emas, boshqa idora direktorning ishini tekshirib, unga jinoiy ish ochadi. Chunki, Xudoyqulovaga yuqori sinflarda dars o'tdi, deb oylik to'lash — moliyaviy jinoiyat. Fuqarolik sudi Xudoyqulovani xursand qilaman, deb maktab direktorini moliyaviy jinoiyatga yetaklayapti, — dedi XTBning moliya-nazorat bo'limi boshlig'i Husniddin Mustafoyev.

Shahar XTB huquqshunosi Olim Abdusamiyev sud qarori haqida shunday dedi:

— Sud Xudoyqulova haqida bizdan xulosa olishi kerak bo'lsa-da, fikrimizga quloq ham solmadi. Faqat uning manfaatini himoya qilindi. Maktab, ta'lim sohasi, yosh avlod kelajagi, maktabda bu ayolning sog'lom muhitni buzayotgani haqida o'ylamadi ham, eshitmadi ham.

— Kimmidir ishga olish, dars soatlarini taqsimlash kabi ishlarda maktabga tashqaridan tazyiq o'tkazilishi mumkin emas, — dedi viloyat XTB boshlig'i o'rinbosari Ulug'bek Mamarasulov. — Qanday tashkilot bo'lmasin, yuqori idoralarning talabi qonunga zid bo'lsa, maktab rahbariyatining bu talabni bajarmaslikka haqi bor. Men 48-maktab direktori Xudoyqulova bilan tuzilgan mehnat shartnomasini haqli ravishda bekor qilgan, deb hisoblayman. Sudning Xudoyqulovani ishga tiklash to'g'risidagi qarori O'zbekistonning barcha qonunlariga zid.

Ha, aytganicha, sarlavhaga qaytsak. Samarqandda sudyalalar kimga manfaatini himoya qilayotganini anglab yetgandirsiz?

Ammo nega? Nima uchun? Nimaning evaziga? Yoki haligi gap quruq po'pisa emasmi?

Muallif, 48-maktab jamoasi, Samarqand viloyat XTB rahbarlari O'zbekiston Oliy Sudidan ushbu maqolani va jurnalistik surishtiruv natijalari aks etgan hujjatli filmini FIB Samarqand viloyat sudi qarori ustidan kiritilgan raddiya, ya'ni protest deb qabul qilishini, N.Xudoyqulovaga oid ishni adolat bilan ko'rib, xolis qaror chiqarishni talab qiladi. Agar viloyat sudi qarori o'z kuchida qoldiriladigan bo'lsa, «Nasiba Xudoyqulova viloyat sudyalaringan farzandlariga haftasiga bir marta ta'lim-tarbiya bersin», degan qo'shimcha band kiritilishini so'raydi.

Karimberdi TO'RAMUROD

Tahririyatdan: Maqola yuzasidan Xalq ta'limi vazirining munosabatini kutamiz. Karimberdi To'ramurod olib borgan jurnalistik surishtiruv asosida olingan hujjatli filmini «Ma'rifat» gazetasining ijtimoiy tarmoqlaridagi (www.facebook.com/marif.uz, telegramda @marifatziyo) kanalida ko'ring va o'zingiz baho bering!





Sinab ko'ring

# Sonlardan kub ildiz chiqarish

“Sonlardan kub ildiz chiqarish” mavzusi darsliklarga kiritilmagan. Ammo bu mavzuni maktablarning yuqori sinfi, litsey, kollej o'quvchilari hamda talabalar, yosh o'qituvchilar o'rgansa, foydadan xoli bo'lmaydi. Shu bois, uni to'garak mashg'ulotlarida o'rgatish maqsadga muvofiq. Sonlardan kub ildiz chiqarishni quyidagi misol orqali ko'rib chiqamiz.

**Misol. 2744 sonidan kub ildiz chiqaring.**

$$\sqrt[3]{2744}$$

**Yechish:** Buning uchun kub ildiz ostidagi sonni o'ng tomonidan boshlab uch xonali son tarzida ajratib chiqamiz. Shunda 2 soni ajralib qoladi. Endi shunday sonni topish kerakki, uning kubi 2 dan katta bo'lmasin. U 1 sonidir.

$$\sqrt[3]{2744} = 1$$

$$\begin{array}{r} \overline{1} \\ * 1 \\ \hline \end{array}$$

Endi 1 soni yoniga 744 ni tushiramiz. Undan so'ng vertikal chiziqning chap tomonidagi yulduzcha o'rnida qanday son bo'lishi kerakligini aniqlaymiz. Yulduzcha o'rnidagi o'ng tomondan oxirgi raqamini aniqlaymiz. Chunki yulduzcha o'rnida 2 va undan ortiq raqamli son bo'lishi mumkin. Buning uchun yuqoridagi tenglikni o'ng tomonidan 1 ni 3 ga ko'paytiramiz.

$$1 \cdot 3 = 3$$

Demak, yulduzcha o'rnidagi oxirgi raqam 3 soni ekan. Endi undan oldingi raqamni toparamiz. Buning uchun yuqoridagi tenglikning o'ng tomonida turgan 1 sonining kvadratini 3 ga ko'paytiramiz.

$$1^2 \cdot 3 = 3$$

Demak, yulduzcha o'rnidagi sonlar ma'lum bo'ldi. Bu son — 33. Endi 33 ning yoniga shunday sonni tanlash kerakki, o'sha son bilan uning oldidagi 3 soni tanlangan sonning kvadratiga ko'paytirilib, birinchi o'rin-

da turgan 3 bilan shu sonni ko'paytirganda 1744 dan katta bo'lmagan son hosil bo'lsin. U 4 sonidir.

$$\begin{array}{r} \sqrt[3]{2744} = 14 \\ \underline{-1} \\ 334 \quad 1744 \\ \underline{4 \quad 1744} \\ 0 \end{array}$$

Yuqorida oxirgi 34 soni 4<sup>2</sup> ga ko'paytirildi. Birinchi raqam 3 soni 4 ga ko'paytirildi. Haqiqatan ham, 14<sup>3</sup>=2744.

**Mustaqil yechish uchun misollar.**

1.  $\sqrt[3]{2744}$     2.  $\sqrt[3]{79504}$     3.  $\sqrt[3]{43243551}$

4.  $\sqrt[3]{381075125}$     5.  $\sqrt[3]{1416247867}$

Adash AHMEDOV,  
Urgut tumanidagi  
8-maktab o'qituvchisi

## Qahramonning to'rt qirrasasi

Umumta'lim maktablarining 11-sinf “Adabiyot” darsligida A.Chexovning “Garov” hikoyasi berilgan. Hikoyani o'rganish jarayonida “SWOT-tahlili” metodidan foydalanish bitta masalaning to'rt qirrasini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Jumladan, “Garov” hikoyasidagi huquqshunos timsolini shu metod asosida tahlil qilamiz (“SWOT” inglizcha strength — kuch, weakness — zaiflik, opportunity — imkoniyat, threat — xavf-xatar so'zlarining qisqartmasidan hosil bo'lgan):

**Kuch.** Huquqshunosning asardagi boshqa qahramonlarga nisbatan ustunlik jihatlari, kuchi nimalardan iborat?

**Zaiflik.** Huquqshunosning zaifligi nimada?

**Imkoniyat.** Huquqshunosning qanday (tashqi) imkoniyatlari mavjud?

**Xavf-xatar.** Huquqshunosning hayotini o'zi istagan darajada yaxshilashiga qaysi tashqi omillar xavf tug'dirishi mumkin?

Tahlil jarayonida asarda keltirilgan parchalardan foydalaniladi. O'quvchilarning har biriga SWOT-tahlili savollari yozilgan varaqlar tarqatiladi va yakka tartibda ularni to'ldirish kerakligi aytiladi. O'quvchilar ishi o'qituvchi tomonidan tekshirilib, quyidagi tahlil ko'rsatilishi mumkin.

**Huquqshunos obrazining SWOT-tahlili**

<p><b>Kuch (S).</b> Huquqshunos oddiy rus yigiti. Yosh, serg'ayrat va qiziqqon. Asarda u bankir bilan garov o'ynaydi. Asardan parcha: — Bo'пти, garov o'ynaganim bo'lsin. Men qamoqda besh yil emas, o'n besh yil o'tira olaman.</p>	<p><b>Zaiflik (W).</b> Huquqshunos pulga o'ch edi. Asardan parcha: — O'n besh yil! Nahotki? Siz-a? — xitob qildi bankir. — Janoblar, men garovga ikki million tikaman! Roziman! Siz millionlaringizni, men bo'lsam o'z erkimni tikaman! — dedi huquqshunos.</p>
<p><b>Imkoniyat (O).</b> Garov o'ynab qamoqda o'tirganida, nuquqshunosning o'ziga kerakli barcha kitoblar-u musiqa notalari, musallas-u tamaki, yemag-u ichmak va hokazolarni istagancha so'rashga haqqi bor edi.</p>	<p><b>Xavf-xatar (T).</b> — Ming la'nat o'sha garovga! — tushkunlikdan boshini changallaganicha o'zidan yozg'irib oldi bankir. — Shu paytgacha nega o'la qolmadi-a? U endigina qirgqa kirdi. Bor-budimdan ayirib, mening davlatimga uylanib oladi-da, rohat-farog'atda yashab, meni har ko'rganida: “Iqbolimni sarbaland etdingiz, endi sizga yordamlashishni burchim deb bilaman!” deb qitig'imga tegadi. Yo'q, bunga toqat qilolmayman! Xonavayron va sharmisor bo'lishdan qutulishning birdan-bir yo'li — huquqshunosning o'limidir.</p>

Hikoyani o'rganish davomida har bir guruhga “Blits-so'rov” savollari yozilgan tarqatma beriladi. Mashqni to'g'ri ishlagan guruh rag'batlantiriladi. Guruhlar ishi o'qituvchi tomonidan tekshirilib, ularga quyidagi ko'rgazma monitorida ko'rsatiladi.

	Huquqshunos yozgan maktubni o'qib	Bankir va huquqshunos	Yengil-yelpi mazmundagi kitoblar, chigal sujetli ishqi romanlar	Kechadagi mehmonlar: olimlar va muxbirlar	To'rt	Nuqul mumtoz asarlar mutolaa qildi	O'n besh yil
1	Asarda garov kimlar o'rtasida bo'ladi?	+					
2	Garovga kimlar guvoh bo'ladi?			+			
3	Garov shartiga ko'ra, bankir necha yil qamoqda o'tirishi kerak edi?						+
4	Bankir huquqshunosni o'ldirish fikridan nima uchun qaytdi?	+					
5	Huquqshunos tutqunlikning birinchi yili qanday kitoblar o'qidi?		+				
6	Huquqshunos tutqunlikning ikkinchi yili nimalar bilan shug'ullanadi?					+	
7	Qiyin tushuniladigan olti yuz jildlik kitobni u necha yilda o'qiydi?				+		

Adiba BEKJONOVA,  
Qo'shko'pir tumanidagi  
41-maktab o'qituvchisi

# Elektron hukumat

## uning ishlash prinsipi qanday?

O'zbekiston "Elektron hukumat"ning ishonchli infratuzilmasini yaratishga qaror qilgan davlatlardan biridir. 2015-yil 3-dekabr kuni Oliy Majlis Senatining to'rtinchi yalpi majlisida tasdiqlanib, 2016-yil iyun oyidan kuchga kirgan "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun davlat organlari faoliyatining ochiq-oshkoraligi, fuqarolarning elektron davlat xizmatlaridan teng foydalanishi, axborot xavfsizligi prinsiplarini mustahkamlaydi. "Yagona darcha" tizimi asosida elektron hujjat almashish imkoniyatlari yanada kengayib, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro aloqaning samarali mexanizmlari yaratiladi.

Bu tizim haqida maktab o'quvchilari-ga tushuncha berish davr talabiga aylanoqda. Agar o'smir maktab davridanoq axborot texnologiyalari, davlat organlarining ochiqligi, turli elektron hujjatlar haqidagi tushunchani egallab bormasa, raqamli iqtisodiyot sharoitiga moslashishi qiyin. Davlat organlari bilan aloqani yaxshilash, navbat kutishni kamaytirish, ma'lumot, guvohnoma, litsenziya kabi rasmiy hujjatlar olish jarayonini yengillashtirishda elektron hukumatning roli katta.

O'quvchi o'z tumani va viloyati hududida "Davlat xizmatlari markazi" faoliyat ko'rsatayotganidan xabardor bo'lishi lozim. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan muayyan tushuncha hosil qilgan 10-11-sinf o'quvchilariga "elektron hukumat" atamasini bandma-band tushuntirish katta samara beradi.

Quyidagi chizmada (1-chizma) elektron hukumat tarmoqlari — yuridik, jismoniy shaxslar, ko'chmas mulk, ma'lumot va klassifikatorlar registri, avtotransport, milliy geoma'lumot tizimi ko'rsatilgan. Ana shu 6 ta baza bo'yicha axborot almashinuv tarmog'i hosil qilinadi. Mavjud ma'lumotlar bazasiga tayanib, har bir operatsiyani tezkorlik bilan bajarish mumkin. Respublikamizda katta tezlikda ishlaydigan optik tolali internet tizimiga jadallik bilan o'tilmoqda. 2018-yil dekabr oyidan e'tiboran, internet tezligi o'n barobar — 1200 Gbit/s gacha oshirilgani ko'pchilikka ma'lum. Albatta, elektron hukumat tezkor, jadal, bexato, me'yorida ishlashi uchun mamlakat miqyosida kommunikatsion muhit yaratilishi lozim.

11-sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv predmetida 31-dars "Elektron hukumat" mavzusiga

ajratilgan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan "Elektron hukumat arxitekturasini" yaratilgan shu soha mutaxassislariga ma'lum. Aslida, bu tizimning ishlash prinsiplaridan keng jamoatchilik, jumladan, o'quvchilar ham xabardor bo'lishi lozim. Darsda mazkur chizmadan foydalangan hamkasblarimizning o'zlashtirish va bilim samaradorligiga erishishda yuqori natijalarni qo'lga kiritishiga shubha yo'q. Bitiruvchilar kelajakda maktabni tamomlab, davlat xizmatlari agentligiga qachon, qay vaziyatda murojaat qilish mumkinligini biladi.

Chizmaning bir tomonida oltita axborot tizimi — sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal, adliya, davlat boshqaruvi, litsenziya

senziya ko'rsatilgan. Ikkinchi tomonda esa soliq, xarid, budjet, klipning, bojxona, nafaqa aks ettirilgan. "Kliping" so'zi notanish ekanligini inobatga olib, auditoriyaga uning lug'aviy ma'nosi — "o'zaro majburiyatlarini belgilash, aniqlash va hisobga olish" ekanligini uqtiramiz. Faoliyatning bu turi bitimga doir axborotni to'plash, solishtirish, unga tuzatish kiritish hamda qimmatli qog'ozlarga doir fuqaroviy-huquqiy bitimlarni ijro etish uchun buxgalteriya hujjatlarini tayyorlash operatsiyasini o'z ichiga oladi. Ko'rsatib o'tilgan 12 ta axborot tizimining elektron shaklda ishlashi, o'zaro axborot almashish imkoniyatini mavjudligi o'quvchi tasavvurini kengaytirib, uni shu jarayonga moslashtiradi.

Elektron hukumat tizimida har bir soha mutaxassislari ma'lumotlarni kunma-kun yangilayveradi. Ma'lumotlar maxsus dastur asosida jamlanadi. Masalan, "Jismoniy ma'lumotlar bazasi"da pasport ma'lumotlari bilan tanishish mumkin: pasport seriyasi, shaxsning ism-familiyasi, yashash manzili, soliq to'lovchining (14 raqamdan iborat) identifikatsiya raqami. U ta'lim oluvchimi pedagogmi, shifokor yoki bank

xodimimi — ma'lumot bir zunda muhayyo.


Bu yildan oliy o'quv yurtlariga abituriyentlardan hujjatlarni elektron qabul qilish mo'ljallanmoqda. Umumta'lim maktablarida ham elektron jurnal joriy etilishi ko'zda tutilayotir. Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llashning eng samarali yo'li har bir maktabda bosh server tashkil etishdir. Shundaygina maktab, bog'cha, poliklinika, mahalla, mahalla qoshidagi tayanch punkti o'rtasida yagona axborot olami paydo bo'ladi. Agar O'zbekistonda qariyb 10 ming maktab, 10 mingdan ziyod mahalla, ko'plab oilaviy poliklinikalar bo'lsa, aholining aksariyat qismi bog'cha va maktab bolalari ekanligi e'tiborga olinsa, ulkan ma'lumotlar bazasining maktabdan boshqarilib, hududiy xizmat shoxobchalari bilan elektron hamkorlik qilishi ortiqcha ovoragarchiliklarga barham beradi. Maktab pedagoglari oliy ma'lumotli bo'lganligi uchun bu bazani boshqarish, yangilab turish qiyin emas. Qolaversa, maktab-oila-mahalla hamkorligining avtomatlashtirilgan tizimi yana ham takomillashadi.

Hozirgi vaqtda davlat xizmatlari portalida 100 dan ortiq xizmatlar ko'rsatilmoqda. Notarius qabuliga yo'zlash, FHDYga oid, soliq va qarzdorlikning onlayn hisobini yuritish, bolani maktabgacha ta'lim muassasasi ro'yxatiga kiritish, maktabga qabul qilish, kommunal, yo'l harakatiga oid, kadastir, tadbirkorlik yo'nalishida davlat xizmatlari ko'rsatish osonlashdi. Har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi ([pm.gov.uz](http://pm.gov.uz)), ochiq ma'lumotlar portalini ([data.gov.uz](http://data.gov.uz)), me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihasini muhokama qilish tizimi ([regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz)), jamoatchilik tashabbuslari yagona platformasi ([meningfikrim.uz](http://meningfikrim.uz)), yagona identifikatsiyalash tizimi ([id.gov.uz](http://id.gov.uz)) haqida bilishi, ulardan qanday foydalanish mumkinligini yuqori sinf o'quvchilariga yetkazish kerak.

Inson davrning shiddatkor oqimiga moslashishi uchun har kuni, har daqiqada yangiliklardan boxabar bo'lishi kerak. Muhtaram Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "Bilimli avlod — buyuk kelajakning, tadbirkor xalq — farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir", deya ta'kidlagani bejiz emas.

Baxtiyor KARIMOV,  
O'zbekiston Respublikasi  
xalq o'qituvchisi

## Elektron hukumat arxitekturasini



## Kasb sirlari o'rgatilmoqda

Mirzacho'l tumanidagi zamonaviy binoda joylashgan "Barkamol avlod" bolalar markazi o'quvchilarning mashg'ulot olib borishi uchun kerakli imkoniyatga ega. To'garak o'quvchilar bilan hamisha gavjum. Bolalar dars tugashi bilan o'zlari qiziqqan to'garaklarga shoshilishadi. Ularga 17 nafar pedagog kasb sirlarini o'rgatmoqda.

Badiiy gimnastika to'garagida 20 nafar qiz koptok, halqa, arqon, tasma yordamida turli mashqlarni bajar-moqda. To'garak rahbari Nilufar Erdanova shogird-lariga kerakli maslahat va yo'l-yo'riqlarni ko'rsatadi.

Malika Shokirova badiiy to'qish to'garagi a'zosi. U taj-

ribali ustoz Munira Abdusalomova rahbarligida mahorati-ni oshirmoqda. Hozir u tengdoshlari bilan nimcha, chopon, bolalar tikish sirlarini o'zlashtirib oldi. Bolajonlar tayyor-layotgan yumshoq o'yinchoqlar, uy-ro'zg'or buyumlari kishining havasini keltiradi.

— Markazimizda texnik, ekologiya, badiiy ijodkorlik yo'nalishlarida 15 ta to'garak muntazam ishlab turibdi, — deydi "Barkamol avlod" bolalar markazi rahbari Bahodir Umrzoqov. — To'garaklarimiz 290 nafar o'quvchini qamrab olgan. Markazimizda kam ta'minlangan oila farzandlari uchun imtiyozlar belgilangan. O'quvchilarimiz tuman va viloyat miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etmoqda.

2018-yil yakunlari bo'yicha mazkur jamoa viloyatda eng yaxshi "Barkamol avlod" markazi deb e'tirof etilgan. Bu yerda o'tkazilayotgan viloyat seminarlarida boshqa markazlar to'garak rahbarlariga metodik va uslubiy yordam ko'rsatilmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtiruvchi rang-barang tadbirlar tashkil etilmoqda.


Abdussattor SODIQOV,  
"Ma'rifat" muxbiri

### Qadrligim Dik Send!

Sen sofdil, oqko'ngilliging bilan menga qadrligim bo'lib qolding. Yosh bo'lsang-da qiyinchiliklar oldida o'zingni yo'qotmading. Hayotga muhabbat, ertangi kunga ishonching so'nmadi. Ishongan odamlaring aldasa ham, ziyrakligingni yanada oshirib mehr ulashishda davom etding. Hayotning achchiq-chuchugiga dosh berolding. Bundan sening qanoatli, chidamli ekaningni bilsa bo'ladi. Turli qiyinchiliklar ham seni o'z maqsading sari intilishdan qaytarolmadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ezgu maqsadiga erishish yo'lida insonga ochlik ham, noqulay sharoit ham to'stinlik qilolmaydi.

Sarguzashtlarning haqidagi ushbu asarni o'qigan har qanday kitobxon sening yaxshi xislatlariga havas bilan qaraydi. Sabr-qanoat, sofdilliging bilan barchaga ibrat bo'lding. Men bu asardan, sendan ko'p narsa o'rgandim. Rahmat senga, do'stim Dik Send!

A'loxon QALANDAROVA,  
Hazorasp tumanidagi 32-maktab o'quvchisi



### Bu illatdan hamon qutulmadik!

Asarni o'qigach, o'zini madaniyatli deb hisoblab, biroq minglab odamlarni qullik girdobiga tashlagan mustamlakachilar va qul bo'lgan insonlar qismatiga chetdan befarq qarab turganlarga nisbatan menda kuchli nafrat paydo bo'ldi.

Achnarlisi shuki, bu illat hali-hanuzgacha tag-tomiri bilan quritilgani yo'q. Qullik ekstremizm, terrorizm, aqidaparastlik niqobi ostida yangicha nom olib, yoshlarni ma'nau qulga aylantirmoqda. Yaqinlarimizni bu illatdan himoya qilmasak, bugun kitob yordamida ma'rifat uchun kurashmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Shuni aytib o'tishim kerakki, asar va undagi voqealar meni ogohlikka, oqni qoradan farqlay bilishga o'rgatdi.

Nasiba NORBO'TAYEVA,  
Zomin tumanidagi 6-maktab o'quvchisi

### Men nima qilardim?

Cheksiz ummon. Quruqlik ko'rinay demaydi. Men chiqqan kema kapitani halok bo'ldi. Shunda nima qilardim? Bir burchakda o'tirib, "Endi bizga kim yordam berarkan?" deb yig'lasam kerak. Lekin bizning qahramon Dik Send unday qilmadi. Kemadagilar bilan kelishib, boshqaruvni tayinli bir kishiga berish kerakligini aytdi. Kemadagilar boshqaruvni yaxshi bilmaganlari sabab yosh yigit — Dik Sendning o'zini kema kapitani etib saylashdi. U yosh bo'lishiga qaramay, o'zi va kemadagilarning hayotini saqlab qolish uchun bor kuchi va bilimi bilan kurashdi.

Tengdoshim 400 tonna keladigan "Piligrim" kemasini boshqarar ekan, uning uzoqni ko'ra bilishi, dovyurakligi, eng og'ir vaziyatda ham tushkunlikka tushmasligi menda unga nisbatan hurmat uyg'otdi. Insonlarning yuz tuzilishiga qarab qanday ekanini bilishi, qutblarga qarab qayerdaligini aniqlay olishidan u juda ko'p o'qib o'rgangan bo'lsa kerak deb o'yladim. "Piligrim" kemasidagi 40 yoshdan oshgan odamlarning ham hayotini 15 yoshli bolakayga ishonib topshirishi bejiz emas.

Nafisa XURRAMOVA,  
Shahrisabz tumanidagi  
49-maktab o'quvchisi

### Yaxshilik g'alaba qozonadi

"O'n besh yoshli kapitan" kitobini ochdim-u, qanday o'qib tugatganimni sezmay qoldim. Kema oshpazi Negoroning g'arazli ishlari meni taajjublantirar va tezroq asli qanday insonligini bilishga oshiqardim. Uning sotqinligini va bu kirdikorlari tezroq ochilishini istardim, lekin uning qulqurushligi xayolimga ham kelmasdi. To'g'risini aytсам, bu kitobning qullik mavzusida ekanini ham bilmasdim.

Barcha yurtlarda bunday ishlarga barham berilgan bo'lsa-da, Janubiy Afrikada hali-hanuz davom etishi va ayrim shaxslarning manfaati uchun xizmat qilishi, oddiy xalqning qirilib ketishi odamni hang-u mang qilib qo'yadi...

Odamlarga qilingan bunday adolatsiz munosabatlardan, ularga nisbatan nohaqliklardan so'ng Negoro va uning sheriklari Gerris, Koimbra, Ibn Homis va o'z xalqiga xiyonat qilgan Alveddan nafratlanish boshladim. Balki shuning uchundir Gerrisning o'limi men uchun bo'lishi muqarrar ishdek tuyuldi. Chunki minglab odamning hayotiga zomin bo'lganning umri shunday yakun topishi kerak edi...

Yakunda yaxshilik g'alaba qozonishi va qahramonlar baxtli bo'lishi menga juda yoqadi. Ezgulik tomonda bo'lganlar maqsadiga yetishiga yana bir karra amin bo'ldim.

Sevara NORBOYEVA,  
Zomin tumanidagi maktab o'quvchisi

### Kemada 6 oy sayohat

Asarni o'qish mobaynida qahramonlar bilan 6 oy kit ovlovchi kemada sayohat qilganday bo'ldim. Ota-ona mehri zor bo'lib o'sgan o'n besh yoshli yigitcha Dik Sendga avvaliga rahmim keldi. Keyin esa tengqurlari kabi bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiravermasligi, o'zini kattalardek tutishi, tirishqoq va mehnatsevarligi, har bir ishga mas'uliyat bilan yondashishiga havas qildim.

Kema halokatga uchraganda Dik matrosning hech biriga ishonmay, o'zi reyalariga chiqdi. Shu vaqtda men juda qo'rqdim. Xuddi Dik qulab tushadigandek. Unga yordam berolsam edi...

Afrika bo'ylab qilgan "sayohat"imizda geografik bilimlarim yanada oshdi. Irodam chiniqib, mustahkamlandi. O'z vataniga xiyonat qilgan Slalveks va Gerris, Ibn Homisning basharasini yovuz kimsa timsolida necha kunlab xayolimdan chiqara olmay yurdim. Axir, inson o'z vataniga xoinlik qilishi mumkinmi? Qul savdosiga qarshi kurashishni istadim. Shu davr bilan hozirgi davrni taqqoslasab yer bilan osmoncha farqni sezdim.

Bu sayohat davomida geografik bilimlarimni oshirdim. Menimcha kapitan yigitcha bu xunrezliklarga barham berib, kelajakda katta kapitan bo'ladi.

Rohatoy RO'ZIBOYEVA,  
Pitnak shahridagi 1-IDUM o'quvchisi

### Tengdoshimga maktub

Assalomu alaykum, Dik, ahvoting yaxshimi? Hayoting haqidagi kitobni o'qib chiqdim. Sinovlardan mardonavor o'tganingdan xursandman. Boshdan kechirgan sarguzashtlaring meni hayratga soldi. Tengdoshim bo'lishingga qaramay, mendan kuchli va irodali ekanan. Bu jihatlaring bilan hayotda sinovlarni bardosh bilan yengishni o'rgatding.

"Piligrim" halokatidan so'ng do'stlaringga katta yordam berding. Asarni o'qish davomida Livingston, Kameron, Stenli sayohatlarining kitoblari haqida ham bilib oldim. Shafqatsiz qul savdogarlari Negoro, Alves, Gerris va Ibn Homis odamiylikdan ancha yiroq edi.

Asl ismi Kendele bo'lgan qoratanli Xose Antonio Alves o'z yurtdoshlariga, xalqiga xiyonat qilgan. Bunday odamlarni vatani, xalqi kechirmaydi. Meni o'ylantirgan narsa shuki, har bir inson tinch va ozod yurtda yashashga haqli. Mening yurtim ozod va mustaqil. Men bundan boshqacha yashash mumkinligini tasavvur qila olmayman. Qanchalar baxtli ekanligimni bilmagan ekanman.

Qadrligim do'stim Dik Send, menga hayot haqiqatlarini ko'rsatding. Shukur qilishni o'rgandim. Hammasi uchun rahmat. Albatta biznikiga mehmonga kelgin!

Muxlisa TOSHPOLATOVA,  
Jizzax shahridagi 23-maktab o'quvchisi

### Mening qahramonim

Dik Send yoshligiga qaramasdan, o'tkir zehni, bilimga chanqoq, tinib-tinchimagan bola ekan. O'n besh yoshida kapitanlik lavozimiga ega bo'lish Dikdan mas'uliyat, mehnat va harakat talab etadi. Quvonchli tomoni shundaki, Dikda bularning barchasi jamuljam ekan. Dik Send yetimligini, yonida hech qanday qarindosh-urug'lari yo'qligini o'ylab hayotdan umidini uzmagani va hattoki, yetimman deb bir uyda qamalib o'tirmagan ham. Uning kechinmalari haqidagi satrlar mening vujudimni titratdi, menga bardosh berdi.

Dik Send qanchalar mehribon bo'lsa, shunchalar qat'iyatli ham. U mening qahramonimga aylandi. Romanni o'qiganimdan juda ham mamnunman. Chunki o'n besh yoshda kapitan bo'lgan bu bolakay menga sabr-matонат, kuch va bardosh baxsh etdi. Endi men ham Dik Send kabi bo'lishga harakat qilaman.

To'xtajon QURYAZOVA,  
Xonqa tumanidagi 40-maktab o'quvchisi

### Zabonsiz do'stim

"O'n besh yoshli kapitan" asarini mutolaa qilar ekanman, voqealar rang-barangligi hamda sarguzashtlarga boy ekanligidan yakuniga qiziqib, qay tarzda vaqt o'tganini bilmay qoldim. Asardagi meni o'zga tildirgan kichik bir voqea haqida so'zlab bermoqchiman. Qahramonlar ochiq dengizda suzib borishayotganda halokatga uchragan kemani ko'rishadi. Unda odam yo'q deb xulosalangan paytda bo'ynida "S" va "V" harflari tushirilgan tasmali, egasining bosh ism - sharifi harflarini taniy oladigan, aqlli kuchuk sharofati bilan "Valdek" amerika kemasida omon qolgan Bat, Otsin, Akteon, Gerkules va 60 yoshli Tomni qutqarib qolishadi. Bu romanni

boshdan-oyoq o'qishga da'vat etgan Dingo laqabli it edi. "Valdek" dagi boshqa kema a'zolari 5 kishini o'zlarining jonini o'ylab bemalol tashlab qochdi. Ammo zabonsiz it yordam beruvchilarga ularni topib ko'rsatdi va tom ma'noda qutqardi. Yana bir voqea diqqatimni tordidi, asar boshidan Dingo oshpaz Negoroni yoqirtmaydi, nega shunday ekanligi asar so'ngida ochib beriladi.

Dik Sendga juda havasim keldi. Mening ham Dingo kabi do'stim bo'lsa edi... Ushbu asarni o'qib chiqsangiz siz ham insonlarning ushbu zabonsiz do'stiga mehr qo'yasiz.

Ismigul ABDUSALOMOVA,  
G'allaorol ijtimoiy-iqtisodiyot  
kolleji o'quvchisi

15-may – Xalqaro iqlim kuni

# Tabiatning qon bosimi oshmoqda

Ko'p yillardan buyon dunyo olimlarini tashvishga solayotgan masala — sayyoramizdagi global isish va uning salbiy oqibatlarini borasidagi xavotirlar shunchaki vahima emas. Chindan ham to'plangan statistik ma'lumotlar so'nggi 130 yilda yer yuzidagi havo harorati taxminan 0,85 daraja oshganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, oxirgi o'n yillikda global isish sur'ati jadallashib, harorat 0,18 gradusga ko'tarilgani muammoning jiddiy ekanini tasdiqlaydi.

Inson faoliyati va tabiatga bevosita ta'siri natijasida yil sayin atmosfera qatlami zaharli karbonat angidrid va boshqa parnik gazlar bilan to'lib bormoqda. Elektrostansiyalar, zavodlar, avtomobillardan tarqaladigan gazlar havoni ifloslantiruvchi asosiy omillar sanaladi. Ko'mir va o'tindan chiqadigan tutun ham havoda uzoq vaqt saqlanib, inson salomatligiga jiddiy xavf soladi. Olimlarning ma'lum qilishicha, 2000—2010-yillarda atmosferada parnik gazlarning so'nggi 30 yildagi eng kuchli to'planishi kuzatilgan. 2014-yili esa ularning havodagi zichligi rekord darajaga yetgan. Afsuski, bu miqdor yer yuzida ortiqcha issiqlik va global iqlim o'zgarishini hosil qilish uchun yetarli.

Atmosfera parnik gazlarning ortishi natijasida sayyoramiz iqlimida yuzaga kelayotgan salbiy o'zgarishlar 1992-yili Rio-de-Janeyroda o'tgan "yer sammi"da birinchi bor xalqaro darajada muhokama qilindi. 1997-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti atmosferadagi zaharli gazlar miqdorini

natijasida iqlimning yomonlashishi insonlarning hayot tarziga ta'sir etmay qolmaydi. Modomiki, salomatlik bevosita atrof-muhit — toza havo, zararsiz ichimlik suvi, foydali moddalarga boy va ishonchli oziq-ovqat mahsulotlariga bog'liq ekan, demak, iqlim o'zgarishining umumiy oqibatlarini insoniyatga ko'p hollarda salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Global isish haqida gapirilganida, ko'pchilik uni shunchaki havo haroratining ko'tarilishi deb baholaydi. Ammo bu hodisa ekstremal iqlim muammolari — qurg'oqchilik, ocharchilik, turli yuqumli kasalliklar, suv toshqinlari va boshqa ofatlarni keltirib chiqarishi bilan dolzarbdir.

Havo harorati ko'tarilganda qutblardagi muzliklarning erishi tezlashib, dunyo okeani va dengizlardagi suv sathi ortadi. Natijada tabiiy ofatlar, meteorologik hodisalarning yuzaga kelishi yanada jadallashadi. Ayniqsa, global isish tufayli sayyoramizda toshqinlar soni yil sayin ortib bormoqda. Keyingi yuz yillikda ularning soni

shi va diareya kasalliklari xavfi ortadi. Shundoq ham har yili dunyo miqyosida 5 yoshgacha bo'lgan 760 ming bola diareya kasalliklaridan ko'z yumayotgan bir paytda global isish muammoni yanada og'irlashtiradi. Yana, suv tanqisligi ocharchilik va qurg'oqchilikka zamin yaratadi. Asrimizning oxirlariga borib, iqlim o'zgarishlari regional va global qurg'oqchiliklar sonini yanada oshirishi mumkin.

Shuningdek, kuchli issiq vaqtda o'simlik va boshqa aeroallergenlarning changlanish darajasi ortadi va ular Yer yuzida 300 milliondan ortiq insonni azoblayotgan astma kasalligini qo'zg'atadi.

Haroratning ko'tarilishi yana ko'plab qashshoq mamlakatlar, xususan, Afrikadagi ayrim davlatlarda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishini 50 foizgacha kamaytirishi mumkin. Yegulik yetishmasligi esa noto'g'ri ovqatlanish yoki ocharchilikka olib keladi. Zero, dunyoda har yili 3,1 million kishi ana shu sababdan halok bo'lmoqda.


Yuqoridagi muammolarni jiddiy o'rgangan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti iqlim o'zgarishlari tufayli 2030—2050-yillar davomida har yili qo'shimcha tarzda 250 mingta o'lim holati kuzatilishini ma'lum qildi. Shulardan keksa yoshdagi 38 ming kishi haddan tashqari issiqdan, 48 ming inson diareya kasalliklaridan, 60 mingi bezgakdan va 95 mingi to'yib ovqatlanmaslikdan vafot etadi.

Aslida, iqlim o'zgarishlari aholining barcha qatlamiga birdek salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo ayrim hududlar aholisi bu muammodan boshqalardan ko'ra ko'proq aziyat chekadi. Xususan, kichik orol-davlatlar, qirg'oqbo'yi rayonlar, megapolislar va tog'li hududlar aholisiga nisbatan qiyinroq bo'ladi. Qashshoq mamlakatlar bolalari, shuningdek, keksalar va bemorlar salomatligi xavf ostida qoladi.

Bu hali hammasi emas. Agar barcha davlatlar bir yoqadan bosh chiqarib, atrof-muhit musaffoligini saqlashga harakat qilmasa, 2100-yilga borib sayyoramizdagi havo harorati 3,7—4,8 gradusgacha ko'tarilishi mumkin. Oqibatda fasllar almashinuvi izdan chiqib, harorat yanada keskin o'zgarar boshlaydi. Tabiiy ofatlar soni ortadi. Kuchli isishlar natijasida o'rmonlarda yong'in kelib chiqadi. Afrika va Yaqin Sharqda qurg'oqchilik, Nepalda qor bo'ronlari, Kanada va Yangi Zelandiyada esa toshqinlarga sabab bo'luvchi kuchli jala yog'ishi mumkin.

Global isish tufayli yuzaga keladigan ocharchilik va suv tanqisligi shimoliy hududlarda bezgak singari tropik kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'ladi. Bu holat nafaqat inson salomatligi, balki davlatlar o'rtasidagi suv va tabiiy resurslar bilan bog'liq siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Iqlimshunoslarning hisob-kitoblari qo'ra, atmosferada parnik gazlarning ko'payishi natijasida 2070-yilga bo-




rib Fors ko'rfazi davlatlarida o'rtacha havo harorati 74—77 gradusga yetadi. Oqibatda bu hududlar yashash uchun yaroqsiz holga keladi. Sun'iy iqlim hosil qilish tizimi rivojlangan yirik megapolislar bundan mustasno bo'lishi mumkin, biroq ularda ham odamlar faqat kechasi uydan chiqa oladi.

Chindan ham yil sayin iqlim o'zgarishi tufayli avj olayotgan muammolar geografiyasi tobora kengaymoqda. 15-may — Xalqaro iqlim kunida aksariyat mamlakatlar asosiy e'tiborni iqlim muammolariga qaratar ekan, ularning muqobil yechimlarini topish bo'yicha o'zaro fikr almashadi.

Aytish kerakki, so'nggi yillarda atmosferada to'planadigan karbonat angidrid gazini kamaytirish borasida Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan davlatlarda sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, oxirgi 15 yilda atmosferaning ozon qatlamida parnik gazlarning to'planishi yiliga 1,3 foizga kamaydi. Ammo bu hali yetarli ko'rsatkich emas. Olimlarning ta'kidlashicha, iqlim o'zgarishlarining oldini olish uchun 2100-yilga qadar atmosferaga karbonat angidrid chiqishini yiliga kamida 6,3 foizga kamaytirish zarur. Bunga bir tomondan, energiya sarflash texnologiyalari, boshqa tomondan, muqobil energiya manbalarini ishga tushirish hisobiga erishish mumkin. Shuningdek, odamlarga taklif etilayotgan xavfsiz transport vositalaridan foydalanish, shaxsiy avtomobilni faol harakat — velosiped haydash va piyoda yurishga almashirish ham atmosferada uglerod to'planishi va havoning ifloslanishini kamaytiradi.

Insonning yashashi va nafas olishi uchun, shubhasiz, toza havo kerak. Garchi zamonaviy dunyoda allaqachon hayotimizga kirib kelgan avtomobillar, yonuvchi qazilmalardan birdan voz kecha olmasak-da, sayyoramizdagi har bir kishi atrof-muhit tozaligi, tabiat musaffoligi, tabiiy boyliklarning tejaliishi tarafdori. Shu bois, Xalqaro iqlim kuni nafaqat ekologik xavfsizlik mutaxassislari, iqlimshunoslar, tabiatni saqlash tuzilmalari va ilmiy xodimlar, balki butun insoniyatning bayramidir.

Iroda TOSHMATOVA  
tayyorladi.



barqarorlashtirish hamda ularning iqlimga ko'rsatayotgan global ta'sirini kamaytirishni ko'zda tutgan, iqlim o'zgarishlariga oid konvensiyani qabul qildi. Shu yilning dekabr oyida 190 mamlakat vakillari ishtirokida o'tgan xalqaro konferensiyaning uchinchi sessiyasida har bir davlat zimmasiga o'z hududida parnik gazlar miqdorini yiliga 5 foizgacha kamaytirish majburiyatini yuklaydigan hujjat imzolandi.


Iqlim o'zgarishi va havoning ifloslanishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarining oldini olishga qaratilgan sa'y-harakatlar jahonda har yili keng nishonlanadigan 15-may — Xalqaro iqlim kunida yanada faol tus oladi. Ushbu norasmiy bayram sanasida meteorologlar va iqlim muammolari bilan shug'ullanadigan barcha soha vakillari insoniyatni global isishning oldini olish va kelajak avlod uchun musaffo havoni saqlab qolishga chorlaydi.

Darhaqiqat, iqlimni musaffo saqlash bugun insoniyat oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi. Boisi, atmosferadagi ozon qatlamining zaharli gazlar bilan to'lishi va global isish

yanada ko'payishi mumkinligi olimlarni xavotirga solmoqda. Chunki toshqinlar insonlarning joni va mol-mulkiga ziyon yetkazish bilan bir qatorda, chuchuk suv zaxirasini ifloslantirib, suv orqali yuqadigan kasalliklar xavfini oshiradi. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, 1960-yillardan keyin yer yuzida ob-havo bilan bog'liq tabiiy ofatlar soni uch barobarga ortgan. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda tabiiy ofatlar natijasida har yili 60 mingdan ortiq odam halok bo'ladi.

Havo haroratining ko'tarilishi keksalar uchun ham xavfli. Kuchli issiq paytida yoshi katta insonlarning yurak-qon tomir va nafas yo'llari kasalliklaridan vafot etish ko'rsatkichi ortadi. Birgina misol, 2003-yili Yevropada qayd etilgan qo'shimcha 70 mingdan ortiq o'lim holatiga ham shu yili kuzatilgan jazirama issiq sabab bo'lgan.

Global isish ta'sirida atmosfera cho'kindilarining taqsimlanishida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Bu esa chuchuk suv zaxirasi, xususan, toza ichimlik suvi tanqisligini yuzaga keltiradi. Natijada aholi orasida gigiyenaning buzil-



# Qo'ng'iroq chalinguncha

hammasini yuragim allanechuk orziqib, cheksiz bir armon bilan eslayman.

## Yo'qchilik va to'qchilik

Bolaligimda menga o'g'il to'y qilinganini yaxshi eslayman. Qo'radagi o'n beshta qo'yni tong saharda otam bilan tumandagi molbozorga haydab borganimiz. Onam xaridorlar qo'ylarimizni ariday talashib-tortishib olsin, deya irim qilib, arining uyasini tutatgan. Qo'ylarimizga o'rganib qolganim uchun ular sotilayotganda ko'nglim cho'kib, mung'ayib qolganman. Ammo o'sha damda otam shunday qilishga majbur ekani, to'y qilish uchun ko'p pul kerakligini ham murg'ak tasavvurim bilan anglagan edim.

To'y juda dabdabali o'tdi. O'sha yillari "Yog'och oyoq" degan o'yin bo'lardi, polvonlar davraga chiqib kurash tushardi. Bunaqa o'yinlarni biz bolakaylar miriqib tomosha qilardik. Shop mo'ylovi qulog'iga qadar buralib ketgan g'ijjakchi allaqanday nag'mani tinimsiz chalib turdi. Uning oldiga yozilgan chorsiga tashlanayotgan pul-lar ko'payib, bir uyum bo'ldi. Ahyon-ahyon odamlar chorsining ustiga engashib, puldan olishardi. Men hamma bemalol puldan olaverishi mumkin ekan, deb o'ylab, chopib borib chorsi-

ga chang soldim. Shunda kattalardan biri ortimdan kelib, belimdan mahkam quchoqlab yerdan ko'tardi, qo'limdagi pulni esa sekin olib, joyiga tashladi. (Yillar o'tgach, odamlar yirikroq pul-larini-maydalab, chorsidan pul olish-ganini tushunganman va o'shandagi qilig'imni eslab, uyalganman.)

Oradan bir-ikki yil o'tgach, otam ukamga ham to'y qilish taraddudiga tushdi. Endi qo'rada qo'ylar yo'q, bitagina sog'in sigirimiz qolgan edi. Bir kuni yarim tunda otamning onam bilan pichirlashib gaplashayotganini eshitib qoldim.

— To'yni qandoq qildik, xotin? Sotadigan narsamiz ham qolmadi.

— Oллоh yetkazar, ko'p o'ylay-vernang, — deya onam otamga dalda berdi.

— Kolxozdan qarz so'rasak berar-mikan? Raisni ulfatlari bilan mehmon-ga chaqirsak-chi?

— Keyin pul so'raysizmi? Pul uchun mehmonga chaqiribdi deb o'ylamaydimi?

— Gapingda jon bor. Uff... Nima qildik endi, xotin? El-yurt oldida xijolat bo'lmasak go'rgaydi...

O'shanda ularga achinib ketganman. Keyin baribir sog'in sigirimizni sotdik. To'ydan so'ng kunimiz quruq non-choy-ga qolgan.

Afsuski, xalqning qon-qoniga singib ketgan o'sha udumlar, ortiqcha chiqimlar, behuda ovoragarchiliklar hali-hamon davom etmoqda...

Shodmon OTABEK

Jaloliddin RUMIY

## Ikkita chorasiz narsa bor...

*Sinalayotgan, imtihon berayotgan bo'lsang, bu Oллоhning seni unutmaganiga dalolat.*

\*\*\*

*Ilmsiz, johil kishining yonida kitob kabi sukutda bo'l.*

\*\*\*

*Toki fe'l-atvoringni tuzatmas ekansan, baxtli va yaxshi kunlarni orzulama.*

\*\*\*

*Seni ranjitganlarga hali salom berayotgan bo'lsang, bu qalbingning sadaqasidir.*

\*\*\*

*Sabr — og'riq qoldiruvchi dori. Ham achiq, ham malham kabi davolovchi.*

\*\*\*

*Ey inson! Ko'rguligingni taqdiridan bilma. Bug'doy ekib, arpa o'rganni ko'rdingmi hech?*

\*\*\*

*Atrofingda senga boqib yaxshi insonlar ko'paymayotgan bo'lsa, iymoningni yana bir ko'zdan kechir.*

\*\*\*

*Hech narsa ko'ringani kabi emas. Bugun senga rohat bergan suvda ertaga g'arq bo'lishing mumkin.*

\*\*\*

*Musofir keladigandek uyingni, o'lim keladigandek qalbingni toza tut.*

\*\*\*

*Dunyoni oxiratga olib ketolmaysan. Ammo shunday yashaginki, dunyo seni oxiratga olib borsin.*

\*\*\*

*O'tgan kun uchun "Astag'firulloh", bugun uchun "Alhamdulillah", erta uchun "Inshoolloh"...*

\*\*\*

*Ikki narsa chorasizdir: o'lim va yo'qolgan ishonch!*

\*\*\*

*Yusufni quduqda, Ibrohimni o'tashda, Yunusni baliq qornida qoldirmagan Oллоh seni ham qiyin kunda qoldirmaydi: Sabr qil!*

\*\*\*

*Yo Rabbim! Menga dardim ichidagi darmonimni ko'rishni nasib et...*

Fors tilidan

Muhabbat TO'XTASHEVA

tarjimasini.

## Bobom

Bolaligimni eslaganimda ko'z oldimga Said bobom keladi. Rahmatli ko'p bolajon, yumshoqfe'l, nabiralarga mehribon odam edi. Onamning hikoya qilishicha, bobomning hovlisida o'ynab yurganimda bir gal katta ariqqa tushib ketgan ekanman. Tezoqar suvda oqib borib ko'yalakcham ko'priknig cho'piga ilinib qoladi, shunda baqirib yig'lagan bo'lsam kerak, bobom kelib suvdan ko'tarib oladi. "Bobong seni bir o'limdan qutqarib qolgan!" deb qo'yardi onam. Har gal issiq non yopganda, ikkita piyozlisini durraga tugib, "Bobongga obor!" der, shunda suyunib bobomnikiga chopqillardim. Bobom nonni olarkan, alqab duo qilar, katta bog'idagi serhosil olmagan qoqib, durraga tugib berardi. Biz talashib-tortishib yeydigan bu meva qirmizak olma deyilardi. Oqish-qizg'ish tusli, hidi, mazasi nam o'zgaqa, yesangiz karsillab turadigan bunaqa olma navini keyinchalik ko'p qidirdim, ammo topolmadim. Bobolarimiz ko'p sirlarni o'zlari bilan olib ketishgan, shekilli. Bobomdan keyin o'sha katta bog'ning fayzi ham qolmadi. Men bularning

## Chavandoz

Birinchi sinfda dars bo'lyapti. Odatdagi salom-alik, yo'qlamadan so'ng o'qituvchi qalin qog'ozdan o'zi yasab kelgan harflarni stol ustiga yoyib qo'ydi-da, o'quvchilarga jilmayib dedi:

— Qani bolalar, kim chiqib, o'z otini topib beroladi?

Sattor shoshib qo'lini ko'tardi:

— Men!

O'qituvchi ajablanib unga qaradi:

— Senmi, Sattorboy? Balli. Ko'rdinglarmi, o'rtloqlar o'tgan safar "ikki" olgani uchun bugun yaxshi o'qib kelibdi. Qani chiq-chi. O'zing bir qotirib javob ber-chi, bolam, — deyshi bilan Sattor yugurib koridorga chiqib ketdi. Bir zunda eshikni lang ochib, "chuv-v, jonivor" degancha kirib keldi. U yo'g'on tomoni ip bilan bog'langan uzun tayoqni "minib" olgan edi.

## Darvozabon

O'ng qo'lida sumka, chap qo'lida quloqchini uzilib ketgan telpagini ko'tarib Sobirjon uyga kirib keldi. Uning chang bosgan va aybdorona xo'mraygan yuziga ko'zi tushgan Sanobar opa "Voy!" deb yubordi, kir tog'oradan qo'lini chiqarib, peshbandiga artarkan.

— Hoy bola, shu telpakni dadang kechagina olib bergandi-ya senga...

— Men emas, bolalar, — dedi u yerga boqib. — Futbol o'ynaymiz, deyishdi.

— Boshingdagi yangi telpakni bolalar to'p o'rnida tepgan bo'lsa, o'zing qayerda eding, nodon?

— Menmi? Darvozada turgan edim, — deb javob qildi Sobirjon.

Jabbor XALIL

Shahrisabz

## Izhor

"Men seni yaxshi ko'raman, yoqtiraman, sevaman seni, jonim. Esimni tanibmanki, sen bilan birgaman. Sen mening sodiq sirdoshim, vafodor hamdamim, ajralmas hamrohimsan, azizam. Senga ishonaman, senga suyanaman, sendan kuch-quvvat, madad olaman mudom. Sendan sir-asrorimni yashirmayman. Bor rozimni senga ishonib aytaman. Bilaman, sen meni sotmaysan, ustimdan kulib, masxara, kalaka qilmaysan. Sen bilan ovunaman. Sen bilan zerikmayman.

Hayot yo'lidagi ne-ne insonlar meni tark etib ketdi. Yo'llar ayro tushdi kimlar bilandir. Unutildim. Unutildim. Yol'iz sen menga, men esa senga xiyonat qilmadim, vafoda sadoqat saqladim. Hamon birgamiz. Sen mening vafodorimsan, azizam. Ishongan bog'im, suyangon tog'im-san. Quvonganimda senga yuzlandim. Hasrat chekkanimda ham sen sari intildim. Yuz burmading, ko'ksidan itarmading. Barini senga aytdim, chidading, jermikimading, aytganlarim bag'ringda pinhon qoldi, sadoqatlim. Sendan toabad minnatdorman, qimmatligim. Mudom xayolimda, mudom qalbimda,



mudom shuurimdasan, vafodorim. Sendan ayrilgan kunim — o'lgan kunim, jonajonim. Senga tashakkur aytaman, boringga shukr deyman, qadrdonim", dedi muallim mehr bilan kitob, qog'oz va qalamga tikilib.

Mansur QURBONOV

## Amerikalik qizning hikoyasi

"Mendan o'rta sinflarning yakuniy imtihonida nazoratchilik qilishimni so'rashdi. Rozi bo'ldim. Vazifam sinov vaqtida ko'chirmakashlikning oldini olish edi. Partalar oralab yurgandim, bir bolakayning mushtumini ochib, kafti ichidagi bir parcha qog'ozga qarab-qarab qo'yayotganiga ko'zim tushdi. Zudlik bilan oldiga bordim. Qo'lidan varaqchani olib, ikkiga bo'lib tashladim.

...Uyda cho'ntagimdan qog'oz parchalari chiqib qoldi. Bir-biriga ulab qarasan, shunday yozilgan ekan: "Bolajonim, men senga ishonaman! O'yijoning".

Jamshid MUSLIMOVning

"Facebook"dagi sahifasidan olindi.

## Eng qadimgi izlar

Chilining janubidan yoshi 15,6 ming yilga teng odam izlari topildi. Uni Amerikada yashagan eng qadimgi odamlar qoldirgan, deb xabar qildi "TASS".



Janubiy Chili universiteti olimlari bu izlarni 2011-yili Osorno shahrida olib borilgan qazishma ishlari chog'ida topgan edi. Bir necha yillik tadqiqotlardan so'ng izlarning 2,588 million yil avval boshlanib, 11,7 ming yil oldin tugagan so'nggi pleystotsen davriga oidligi aniqlandi.

Tadqiqot guruhining ma'lum qilishicha, bu izlar Amerikada topilgan odam izlari orasida eng qadimiysi bo'lib, uning yoshini aniqlashga qazuv joyidan olingan organik o'simlik materiallari yordam berdi.

Xabarda aytilishicha, qazilmalar orasida toshdan yasalgan qurollar ham bo'lib, ular



o'sha davrda Janubiy Amerika hududida odam yashaganini tasdiqlaydi. Sal avval chililik arxeologlarning 14,6 ming yil oldin yashagan odam izlarini topgani ham bu qit'aga insonlar qachon kelib joylashgani borasidagi bahs-munozaralarga chek qo'yolmagan edi.

Eslatib o'tamiz, hozirga qadar eng qadimgi odam izlari Tanzaniyadan topilgan bo'lib, uning yoshi 3,5 million yilga teng ekani qayd etilgan.

## Yolg'onmi yo haqiqat?

Amerikalik olimlar odamlarning surunkali charchoq sindromidan aziyat chekishi bilan bog'liq jumboqli masalani ishonchli aniqlab beradigan birinchi tibbiy testni yaratishga muvaffaq bo'ldi, deb xabar qildi "RIA Novosti".

— Ko'pchilik bu kasallikni o'ylab topilgan, deb hisoblaydi.

Shifokor shunday kasallikdan shikoyat qilib kelgan bemorlarga qon tahlili topshirish, jigar, buyrak va yurakni tekshiruvdan o'tkazishni buyurganida, ular aksariyat hollarda, sog'lom bo'lib chiqadi. Muammo shundaki, ular kasallikni noto'g'ri yo'nalishda izlaydi yoki yetarlicha tekshiruvdan o'tmaydi, — dedi AQShning Stenford universiteti xodimi Ron Devis.



Bunday bemorlarning aksariyatini uyqusizlik, bosh og'rig'i va charchoq kabi umumiy belgilar bezovta qiladi. Uzoq izlanishlardan so'ng sindromning rivojlanish sababini aniqlay olmagun mutaxassislar uning asosida ruhiy ta'sir yotishini ta'kidlay boshladi.

Ammo shuni aniqlik, ushbu noodatiy kasallik haqiqatan mavjud va u asab tizimidagi o'ziga xos o'zgarishlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Kasallikni aniqlashning samarali usulini topgan amerikalik olimlar yaqin yillarda uning chinakam sabablarini ham aniqlasa, ajab emas.

Iroda TOSHMATOVA  
taylorladi.

**Xujayev Muminjon Isoxonovichning 09.00.03 — Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha «Ahmad Zaki Validiyning diniy-falsafiy ta'limoti» mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMUning ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: rector@nuu.uz

**Sherimbetov Anvar Gulmirzayevichning 03.00.04 — Mikrobiologiya va virusologiya ixtisosligi bo'yicha «Fusarium turkumi zamburug'lari-ning biomorfologiyasi va patogenlik xususiyatlari» mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Mikrobiologiya instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.V.38.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7- "B" uy.

Tel/faks: (71) 241-92-71, 241-71-98; e-mail: microbio@academy.uz

**Pulatov Dilmurod Tuxtoboyevichning 14.00.40 — Shoshilinch tibbiyot ixtisosligi bo'yicha «Duodenal yaralar urgent asoratlarning klinik-morfologik xususiyatlari va xirurgik davo taktikasi» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.02.2018.Tib.63.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Kichik halqa yo'li, 2-uy. Tel/faks: (78) 150-46-00, 150-46-05; e-mail: uzmedicine@mail.ru

**Raxmanov Qosim Erdanovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha «Jigar exinokokkozi xirurgik davosini takomillashtirish» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.49.01. raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-may soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li, 10-uy.

Tel/faks: (71) 230-49-09, (71) 277-04-94, e-mail: cs.75@mail.ru

**Xalikov Sarvar Pulatovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha «Traxeyaning chandiqli tarayishida diagnostika algoritmini va jarrohlik davolash choralarini takomillashtirish» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.49.01. raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-may soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100115, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li, 10-uy.

Tel/faks: (71) 230-49-09, (71) 277-04-94; e-mail: cs.75@mail.ru

**Toshov Xurshid Ilxomovichning 09.00.03 — Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha «Germetizm g'oyalari shakllanish qonuniyatlari va transformatsiyasi» mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 24-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

O'zMUning ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.


Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: rector@nuu.uz

**Ibragimova Naylya Muradovnaning 08.00.02 — Makroiqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha «Aholi iste'molini makroiqtisodiy prognozlashirishning ustubiy yondashuvini takomillashtirish» mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

## Barcha tashabbuslar bolalar uchun!



Yunusobod tumanidagi 97-maktabda "Tashabbus va imkoniyatlar barchasi bolajonlar uchun" shiori ostida ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.

Tadbirda V.Uspenskiy nomidagi musiqa maktabi o'quvchilari taklif etildi. Ular ijrosidagi jonli musiqa sadolari tadbirda yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

Kun davomida ta'lim muassasasi-ning barcha fan va sport, hunarmand-

chilik to'garaklari faoliyati o'quvchilarning ijod namunalari, yutuqlari natijalari orqali namoyish etildi.

Ochiq darslar va maktab "Iste'dod" teatr to'garagining Jaloliddin Manguberdi haqidagi sahna ko'rinishi barchaga manzur bo'ldi.

Davlat test markazi tomonidan 2007-yil 16-iyulda Toshmurodov Azamat Ro'ziboyevich nomiga berilgan OB seriyali 000430 raqamli guvohnoma bekor qilindi.

Abituriyentga yordam

# Hujjat topshirish uchun OTMga borish shart emas

Davlat test markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun 679 000 dan ortiq abituriyent hujjat topshirgan. Ulardan 10 foizga yaqini kirish imtihonlaridan o'tib, talaba bo'ldi. Lekin, joriy yilda, DTM taxminlariga ko'ra, abituriyentlar soni 11-sinf, kasb-hunar kolleji va akademik litsey bitiruvchilari, oldingi yillardagi bitiruvchilar hisobiga ikki barobar oshib, 1 500 000 nafarga yetishi kutilmoqda.



Endilikda OTMga hujjat topshirishda abituriyentlardan 086-U shakli bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma talab qilinmaydi. Mazkur tibbiy ma'lumotnomaning talab qilinmasligi orqali ortiqcha sarsongarchiliklarning oldi olinishiga erishiladi. Shuningdek, abituriyent imtihon natijalariga ko'ra oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingandan so'ng Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomda ko'rsatilgan hujjatlarning asl nusxalarini tegishli oliy ta'lim muassasalariga o'quv yili boshlangunga qadar taqdim etishi kerak.

2018-2019-o'quv yili uchun sinov tariqasida Toshkent davlat yuridik universitetiga o'qishga kirish uchun abituriyentlardan hujjat qabul qilish Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlar sonining oshishi hujjatlarni topshirish hamda davlat imtihonlarini o'tkazish chog'ida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ushbu markaz orqali ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan ko'zlangan asosiy maqsad oliy ta'lim olish istagidagi yoshlarga qulaylik yaratish, xizmat ko'rsatish tartibini soddalashtirishdan iborat. Masalan, 2019-2020-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlari Davlat xizmatlari markazlari orqali topshirilishi abituriyentlarga Toshkent shahri va respublikaning istalgan hududida joylashgan oliy ta'lim muassasasiga o'z tumanidan chiqmasdan turib hujjat topshirish imkonini beradi. Qolaversa, abituriyentlar onlayn tarzda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — [my.gov.uz](http://my.gov.uz) orqali ham o'qishga onlayn hujjat topshirishi mumkin.



— Abituriyentlar doimiy (yoki vaqtincha) ro'yxatda turgan joyidan qat'i nazar, eksterritorial tamoyil asosida istalgan Davlat xizmatlari markaziga kecha-yu kunduz murojaat qilishi mumkin. Buning uchun ular hududiga yaqin Davlat xizmatlari markazlariga borishi yoki internet orqali [my.gov.uz](http://my.gov.uz) saytiga kirib, kerakli sahifani to'ldirishi kifoya, — deydi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bo'lim boshlig'i Sevara Zokirova. — Yana shuni aytish kerakki, xorijiy, xususiy hamda harbiy oliy ta'lim muassasalariga, oliy ta'lim muassasalarining magistratura bo'limi hamda maxsus sirtqi ta'lim shakllariga o'qishga kirish uchun abituriyentlar, shuningdek, xorijlik fuqarolar bevosita oliy ta'lim muassasasining o'ziga kelib hujjat topshirishi rejalashtirilgan. Buning uchun yaqin kunlarda hukumat qarori loyihasi qabul qilinishi va u bilan birga OTMga hujjatlarni qabul qilish yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlanishi ham kutilmoqda.



**Bu yil davlat xizmatlari orqali hujjat topshirish istagidagi abituriyentlardan quyidagi hujjatlarning asl nusxasi talab qilinadi:**

- fuqarolik pasporti (mavjud bo'lmasa, ichki ishlar bo'limlari tomonidan berilgan 09-shakl bo'yicha jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami ko'rsatilgan ma'lumotnoma);
- pasport olish yoshiga yetmaganlar uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma;
- umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjat (ilovasi bilan);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi.



Oliy ta'lim muassasalariga hujjatlarni [my.gov.uz](http://my.gov.uz) platformasi orqali topshirish imkoni mavjud deb yuqorida ta'kidlab o'tgandik. Biroq fuqarolik pasporti olish yoshiga to'lmagan yoki pasporti mavjud bo'lmagan, shu bilan birga, turli imtiyozlarga ega abituriyentlar hujjatlarni bevosita Davlat xizmatlari markazlariga borib topshirishlari kerak.



Ma'lumot o'rni aytish mumkinki, bu yil sirtqi 15-yanvardan 25-yanvargacha davom etadi. Ilgari bu ta'limga hujjatlar 1-iyuldan 30-iyulgacha Davlat jarayon 20-dekabrden keyingi yilning 20-yanvariga qadar davom etgan. xizmatlari markazlari orqali qabul qilinadi. O'qishni bahorgi semestrga qayta tiklash bo'yicha ariza topshirish

Fayoza AVLAYEVA, "Marifat" muxbiri

# Marifat

**TASIS ETUVCHILAR:**

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150, V-3406. Tiraj 16000.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**

qabulxonasi — (71) 233-50-55;  
kotiбиyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

**MANZILIMIZ:**

100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz)

**Dizaynerlar:** Malohat Tosheva, Faxriddin Rahimov.  
**Navbachi muharrir:** Xayrullo Abdurrahmonov.  
**Navbachi:** Faxriddin Rahimov.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'zA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.50

1 2 3 4 5 6